2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 63 (1124), 2024-yil 29-mart, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

HUDUDLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN KENG IMKONIYATLAR BORLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-mart kuni Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni Xalq hukumati raisi Erkin Tuniyaz boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi.



O‘zbekiston va Xitoyning ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish, shu jumladan, O‘zbekiston hududlari va SHUAR o‘rtasidagi amaliy aloqalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston — Xitoy do‘stlik va barcha sharoitda strategik sheriklik munosabatlaridagi bugungi yuksak daraja katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekistonning Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni bilan tovar ayirboshlashi oshmoqda — bugungi kunda mamlakatlarimiz o‘zaro savdosining qariyb 10 foizi shu hududga to‘g‘ri keladi.

SHUARning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikdagi investitsiya loyihalari portfeli 3,5 milliard dollarni tashkil etib, bugungi kunda “yashil” energetika va elektrotexnika, qurilish tarmog‘i va yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish, metallurgiya, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Madaniy almashinuvlar dasturi faol amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari SHUAR bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va qo‘shma loyihalarni jadallashtirish muhimligini ta’kidladi. Innovatsion texnologiyalar, qishloq va suv xo‘jaligi, transport va logistika, bank-moliya sohasi, ta’lim, an’anaviy tibbiyot kabi bir qator ustuvor yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekiston har yili Urumchi shahrida o‘tkazib kelinayotgan “Ekspo Xitoy — Yevroosiyo” bosh ko‘rgazmasida faol ishtirok etishi qayd etildi.

Uchrashuvda gumanitar va turizm aloqalarini rivojlantirish masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

“O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy” temir yo‘lini qurish loyihasini ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zA

TA’LIM SIFATINI OSHIRISH BO‘YICHA REJALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktab ta’limini rivojlantirish va sifatini oshirishga oid rejalar taqdimoti bilan tanishdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari eng birinchi vazifa etib belgilangan. Shunga muvofiq, bu soha ham umumiy, ham ixtisoslashtirilgan tarzda rivojlantirilmoqda. Jumladan, yurtimizda 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda.

O‘tgan yillardagi tajriba va hayot talabidan kelib chiqib, ulardagi yo‘nalishlarni takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Xususan, Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda Myunxen texnika universiteti bilan hamkorlikda, tajriba tariqasida, muhandislik dasturlarini joriy qilish taklif etilmoqda. Bu dastur “Yangi O‘zbekiston” universiteti dasturi bilan integratsiya qilinadi.

Yuqori malakali pedagoglar imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Prezident ta’lim muassasalari agentligi huzurida jamoatchilik asosida “Fan kengashlari” tuziladi. Bu kengashlar ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, baholash tizimini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga jalb qilinadi.

Kelgusi o‘quv yilidan 14 ta maktabda fanlarni ingliz tilida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, 2025-2026-yillarda 8 ta yangi ixtisoslashgan maktab qurish rejalari ham aytib o‘tildi.

Ijod maktablari bo‘yicha ham takliflar bor. Jumladan, ularda taniqli adiblar va jamoat arboblari ishtirokida mahorat darslari tashkil etiladi. O‘quvchilarning ijodiy ishlarini Yozuvchilar uyushmasi hisobidan nashr etish yo‘lga qo‘yiladi. Turli ko‘riktanlovlar o‘tkazish orqali iqtidorli yoshlar qo‘llab-quvvatlanadi.

Ta’lim sifatini oshirishda fan olimpiadalari muhim. So‘nggi yillarda g‘oliblarni munosib rag‘batlantirish tizimi joriy etilgani natijasida bilimga intilish kuchaydi. Talabgor o‘quvchilar, “katta beshlik” fan olimpiadalarida qo‘lga kiritilgan medallar avvalgiga nisbatan ikki baravar ko‘paydi. Mamlakatimizda Al-Farg‘oniy, Beruniy, Mendeleyev nomidagi xalqaro olimpiadalar o‘tkazildi.

Bu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash markazi tashkil etish taklif qilinmoqda. Unga yetuk olimlar va xorijiy mutaxassislar jalb etiladi, o‘quvchilarning har biri rivojlanish dasturi orqali maqsadli tayyorlanadi.

Ishtirokchilarning xalqaro olimpiadalardagi yakuniy natijalaridan kelib chiqib, terma jamoa yetakchisini rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Barcha fan olimpiadalarini aks ettiradigan yagona olimpiadalar taqvimi va tayyorgarlik tizimi yaratiladi. Asosiy mashg‘ulotlar bilan birga psixologik treninglar, boshqa jamoalar bilan qo‘shma yig‘inlar o‘tkaziladi.

Taqdimotda o‘quvchilar bilimini baholashning shaffof va xolis tizimini joriy qilish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Hozirda bilimning bahosi turli maktablarda turlicha. Imtihon varaqalaridagi savollar darajasi ham har xil. Xalqaro testologiya talablariga ko‘ra, hamma variantlardagi savollarning qiyinlik darajasi teng bo‘lishi kerak.

Shu bois, davlat yakuniy attestatsiyasida, ya’ni maktabni bitirish imtihonlarida o‘quvchilarning bilimini yagona nazorat materiallari asosida baholash taklif etilmoqda. Imtihon topshiriqlari yozma va amaliy shaklga o‘tkaziladi, javoblarni maxsus platforma orqali tekshirish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi, savollar doimiy ravishda yangilanib boriladi.

Yana bir muhim yangilik — maktabni bitirish imtihonlarida oliy ta’lim muassasasiga kirish sinovlariga mos fanni tanlash imkoniyati yaratiladi.

Davlatimiz rahbari umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, uning oliy ta’lim bilan mutanosibligini mustahkamlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Taqdimotda ta’lim va boshqa sohalarda madaniyatni keng yoyish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Yosh avlodda san’atga mehrni maktab va oliygohdan boshlab shakllantirish zarurligi ta’kidlandi.

Shu maqsadda ijod maktablarida “Tasviriy san’at va chizmachilik” fani o‘rniga “San’at” fani kiritish taklif etilmoqda. Bunda faqat rasm chizish emas, balki rangtasvir, hunarmandchilik, kinematografiya, haykaltaroshlik va dizaynga oid ko‘nikmalar o‘rgatiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida bu bo‘yicha maslahatchi tizimini Madaniyat vazirligi bilan bog‘lab, maqom, baxshichilik, teatr meroslarini yoshlarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, yirik korxonalar va klasterlar qoshida ansambllar tuzilib, mahallalarda konsertlar, maktablarda madaniyat kunlari tashkil etilishi belgilandi.

O‘zA

Shukuh

TAYANCH NUQTA

Prezidentimizning Namanganga bu safargi tashrifi nafaqat viloyatimiz, balki butun yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Negaki tashrif doirasida iftorlik dasturxoni yozildi. Hozir juda oddiy qilib aytyapmiz. Aslida, bu nihoyatda katta voqea bo‘ldi. Davlatimiz rahbari bilan bir paytda mamlakatimiz bo‘ylab nuroniylar, jamoatchilik vakillari ezgulik ulashilgan bitta dasturxon atrofida jamlandik. Xalqimizga xos samimiy muloqot qildik. Shu ma’noda, ma’rifiy tadbir xalqimiz va davlatimizning birdamlik ramzi bo‘ldi.

Xalqimiz tabiatan e’tiqodida sobit, elparvar, vatansevar. Bu ezgulik, poklik ramzi bo‘lgan Ramazon oyida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ulug‘ ayyom kunlarida saxovat qilish, keksa, kasalmand kishilar holidan xabar olish ko‘payadi. Bir-birimizga mehr-oqibatimiz yanada ortadi. Bugungi tezkor zamonda xalqlarning shu kabi asl va azaliy qadriyatlarini saqlab qolish juda muhim. Buning uchun, avvalo, yoshlar tarbiyasiga e’tibor qaratish zarur. Yoshlar — yurtning katta kuchi, eng bebaho boyligi, o‘zgarishlarni tez qabul qiladigan qatlam. Demak, ularning ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan e’tiborni bir lahza susaytirib bo‘lmaydi.

Davomi 2-betda

DAXLDORLIK HISSI

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mustaqillik arafasida — 1991-yilda mamlakatimiz aholisi 20 million kishini tashkil etgan. Bugun O‘zbekiston — xalqi 37 million kishidan iborat, tobora rivojlanib borayotgan, o‘z oldiga suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan, dunyoning deyarli barcha mamlakati e’tirof etayotgan, nufuzi kundan kunga ortib borayotgan ozod va hur davlat.

KURASHMOQ — O‘ZINI O‘ZI YENGMOQ

Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi kun sayin o‘zgarib bormoqda. Nafaqat yaqin ikki-uch yilda mamlakatimizga kelmagan xorijlik do‘stlarimiz, hatto o‘zimiz ham yurtimizdagi o‘zgarishlar, tub islohotlar tufayli tobora taraqqiy etayotgan iqtisodiyotimizdagi yangiliklar mohiyatini anglashga ulgurmayapmiz. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, barcha sohaga raqamlashtirish, “yashil” va innovatsion texnologiyalar jadal kirib kelmoqda, yangi-yangi zamonaviy sanoat va energetika majmualari, avtomobil va temir yo‘llar, texnopark va IT-parklar, “aqlli” va elektron boshqaruv tizimlari barpo etilmoqda.

Biz oldimizga ulkan maqsadlar qo‘ydik. Ulardan ko‘zlagan orzu-niyatlarimiz inson qadrini ulug‘lash, uning yashashi, turmushi, mehnat qilishi, zamonaviy ta’lim turlaridan bahramand bo‘lishi uchun munosib shart-sharoit yaratishdan iborat.

Umumxalq muhokamasi natijasida qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bizni buyuk marralar sari safarbar etmoqda. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobar oshirib, 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromad miqdorini esa o‘rtacha 4 ming dollarga yetkazishni reja qilganmiz.

Shubhasiz, bu juda murakkab, har birimizdan ulkan bilim, salohiyat, fidokorona mehnat qilishni, xalqimizdan milliy birlik, uyushqoqlik, har jabhada jasorat va kuchli iroda ko‘rsatishni talab etadigan vazifalardir. Biroq mutafakkir allomalarimizning ilmiy-ma’naviy merosidan ruhlanib, davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan va

ilmiy asoslangan strategik rejalarga suyangan xalqimiz ko‘zlangan marralarga, albatta, erishadi. Bunga hech kimda shubha yo‘q.

Ayni paytda yana bitta muhim, tarixda isbotlangan haqiqat bor: kimki o‘zining bugungi holatidan qoniqish hosil qilib, erishgan yutuqlariga mahliyo bo‘lib, yolg‘on maqtovlarga uchib yashasa, undaylarning kelajagini tasavvur etish qiyin emas. Buning sabablari ko‘p.

Bugun davr butkul boshqacha: siyosatlar, milliy manfaatlar, qarashlar katta tezlikda, odatiy tarzdagi evolyutsion holatda emas, aksincha, shiddat bilan, inqilobiy tusda o‘zgarib bormoqda. Jahoniy beshafqat jarayonlar, siyosiy-mafkuraviy kurashlar, ayovsiz ziddiyatlar, davlatlararo, mintaqalararo, sivilizatsiyalararo kelishmovchiliklar bu yorug‘ olamni jar yoqasiga keltirib qo‘ydi. Tinchlik degan muqaddas qadriyat mo‘rt bo‘lib qoldi. Eng yomoni, ana shunday vaziyatda endi hech kim dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalardan chetda turolmaydi. Barchaning taqdiri o‘zaro bog‘liq. Bu — birinchidan.

Davomi 3-betda

TAHLIL VA TAQQOS

AHOLINI RO‘YXATGA OLISH SHUNCHAKI STATISTIKA EMAS

Aholini ro‘yxatga olish — umumdavlat miqyosidagi keng ko‘lamli tadbir, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbai. Buning natijasida aholi soni, yashash sharoiti, ma’lumoti, ta’lim darajasi, bandligi, yoshi, jinsi, milliy tarkibi, hududlarda joylashuvi va boshqa ijtimoiy-demografik masalalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar yig‘iladi.

Joriy hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz aholisi soni 36 million 799 ming 728 kishiga yetdi. Mamlakat taraqqiyoti yo‘lidagi islohotlar inson qadrini ulug‘lash, aholi daromadlarini oshirish va ularga munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Lekin xalqaro tajribadan ma’lumki, joriy hisob-kitoblar aholining turmush tarzi, iqtisodiy ahvoli, bandligi, uy-joyi, daromad manbalari va boshqa ijtimoiy yo‘nalishlar haqida aniq xulosa hamda tahlillar qilishga yetarlicha imkoniyat bermaydi.

Davomi 4-betda

Sohadagi islohotlar mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasiga ehtiyojini ta’minlash bilan birga mintaqa energetik barqarorligiga ham xizmat qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 29-mart, 63-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Shukuh

TAYANCH NUQTA

Ikromxon NAJMIDDINOV,
“Nuroniy” jamg‘armasi Namangan viloyati bo‘limi raisi

Yurtdoshlarimiz hamon mazkur savobli tadbir shukuhi bilan yuribdi. Hech shubhasiz, u inson qadrini ulug‘lashga, yosh avlodni vatanparvarlik, insoniylik kabi olijanob ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Chunki xalqimiz azaldan muhim masalalarni ana shunday davralarda, ochiq yuz, samimiy muloqot bilan hal etgan.

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari qatnashgan iftorlik dasturxoni atrofida oldimizda turgan shu kabi dolzarb masalalar xususida samimiy suhbat bo‘ldi.

Ma’rifiy tadbirdan chiqqach, tashrif doirasidagi barcha uchrashuvlarda Prezidentimiz kun tartibiga qo‘ygan masalalar haqida mulohaza qildim. O‘ylab ko‘rsam, ularning hammasi bitta nuqtada birlashar ekan. Bu ham bo‘lsa, xalq farovonligi, yurt tinchligi, o‘zligi va vatani bilan faxrlanadigan yosh avlodni tarbiyalash. Mazkur yo‘nalishda bir necha yil avval boshlangan islohotlar bugun yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunga o‘tgan yil oxiri va 2024-yil boshida davlatimiz rahbari o‘tkazgan uchta yig‘ilishda poydevor qo‘yilgan edi.

O‘tkazilgan yig‘ilishlar ketma-ketligi, ularda ko‘tarilgan mavzular islohotlar puxta reja asosida borayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, dastlab 2023-yil 26-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Unda mahalladagi kamchiliklar tahlil etilib, tizimni takomillashtirish va samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Bugun bu boradagi ishlar allaqachon boshlanib ketdi. Joylarda “mahalla yettiligi” xalq orasida yurib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini o‘rganib, mavjud masalalarga yechim beryapti. Ayniqsa, tomorqachilik borasida ijobiy o‘zgarishlar qilinmoqda. Namanganga tashrif doirasida ham bo‘sh turgan tomorqalardan unumli foydalanish masalasi ko‘tarildi, mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Aholining iqtisodiy masalalari yechim topsa, muammolar kamayadi. Odamlar bolalari o‘qishiga ko‘proq e’tibor berib, ular ta’lim-tarbiyasiga jiddiy qarashga vaqt ham, hafsala ham topadi. Tomorqadan unumli foydalanib, iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Bunday kompleks masalalarni mahalla ko‘magisiz hal qilish oson emas. Yangi marralarga mazkur tizim islohi bilan qadam tashlandi.

2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda Ibrat domlaning “Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur” degan hikmati yodga olindi. Biz — ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelganlar oldiga ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lish, odamlarni yaxshilikka boshlash vazifasi qo‘yildi.

Bolalar tarbiyasida muayyan vaqt sustkashlikka yo‘l qo‘ydik. Ya’ni tarbiyani faqat maktablar zimmasiga yukladik. Yoshlar qilmishi uchun, avvalo, o‘quv muassasasi javobgarlikni bo‘yniga oladigan bo‘ldi. Vaholanki, har bir yosh oilada, mahallada ulg‘ayadi. Demak, ular tarbiyasida ota-ona, qo‘ni-qo‘shni, ayniqsa, nuroniylarning o‘rni muhim.

Yig‘ilishda shu kabi masalalar muhokama qilindi. Qisqa vaqtda amaliy ishlarga qo‘l urildi. Jumladan, iftorlik dasturxonida 40 dan ziyod ulamo xorijda yurgan vatandoshlarimizni dinu diyonatga da’vat etib, hozirgi tahlikali vaziyatda ogoh bo‘lish, qonunlarni hurmat qilish kabi mavzularda suhbatlashgani aytildi. Bundan tashqari, ota-onalar mas’uliyatni his etgani bois, maktablarda davomat o‘z o‘rniga kelganini barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz.

Joriy yil 12-yanvar kuni esa davlatimiz rahbari raisligida Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma’muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda globallashuv jarayoni hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan, vazifalar berilgan edi.

Davlatimiz rahbarining Namanganga tashrifi davomida kun tartibiga qo‘yilgan masalalar yuqorida aytilgan mavzularning barchasini qamrab oldi. Ya’ni “mahalla yettiligi”, faollar yangi tizimga munosib xizmat qiladi. Natijada aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati barqarorlashadi. Ma’naviy-ma’rifiy muhitni yaxshilash, yoshlar ta’lim-tarbiyasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun ziyolilar, nuroniylar targ‘ibotchi bo‘ladi. Mahallalarda ulg‘ayayotgan yoshlar vatanparvar, elsevar bo‘lib kamol topadi. Bu vazifalar mamlakat taraqqiyotining tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Yurtdoshlarimiz hamon mazkur savobli tadbir shukuhi bilan yuribdi. Hech shubhasiz, u inson qadrini ulug‘lashga, yosh avlodni vatanparvarlik, insoniylik kabi olijanob ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Chunki xalqimiz azaldan muhim masalalarni ana shunday davralarda, ochiq yuz, samimiy muloqot bilan hal etgan.

Munosabat

“YASHIL” ENERGETIKA
taraqqiyot yo‘li mash’ali

Xayrullo G‘AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o‘rinbosari

Energetika barqarorligi – bugungi zamon talablari asosida jadal taraqqiyotga erishishni maqsad qilgan har qanday davlat uchun muhim mezon. Usiz yirik iqtisodiy loyihalar u yoqda tursin, bog‘liqligi nisbatan kamdek ko‘ringan sifatli ta’lim yoki tibbiyot, qishloq xo‘jaligida yuqori samaradorlik, qo‘yingki, minimal maqsadlarga ham erishish qiyin.

Shu nuqtayi nazardan, bu, ayniqsa, inson qadrini ulug‘lash, farovonligini ta’minlash yo‘lida iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish, aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazishdek katta maqsadlarni ko‘zlab yo‘lga chiqqan yangi O‘zbekiston uchun g‘oyat muhimdir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida esa tizimli va kompleks choralar ko‘rilayotgani tahsinga sazovor. Keling, shu yerda fikrimizni mulohazamiz boshlangan energetika barqarorligi mavzusida davom ettirsak. Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, Prezidentimizning viloyatlarga tashrifi chog‘ida muhim ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar qatorida deyarli har safar energetika mavzusi muqim joy olmoqda. Jumladan, so‘nggi ikki manzil — Sirdaryo va Namangan viloyatlariga tashrifda ham bu masala kun tartibiga chiqdi.

Xo‘sh, nega? Keyingi yillarda yurtimizda energetika sohasida, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, samaradorlikni oshirish orqali energetika barqarorligini ta’minlash borasida salmoqli ishlar bajarildi. Buni Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda keyingi yillarda 1,6 gigavattli 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulangani, Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 183 megavattli 6 ta GES ishga tushirilgani misolida ham ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda, davlatimiz rahbari Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida uchta yangi elektr stansiyasi qurilishini boshlab berganini alohida qayd etish lozim.

“Odamlarimiz farovon yashashiga sharoit yaratish yangi O‘zbekiston siyosatining asosiy poydevorlaridan biridir. Buning uchun katta-kichik loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish, ularning barqaror faoliyati uchun uzluksiz energiya ta’minoti nihoyatda zarur. Shu ma’noda, bugungi marosim ham tarixiy voqea. Barchangizni shunday yangi loyiha va tashabbuslar bilan tabriklayman”, dedi Prezidentimiz.

Viloyatda qurilishi rejalashtirilgan GESlar kaskadi hamda ikkita quyosh elektr stansiyasining quvvati 1228 megavatt, jami qiymati 1,1 milliard dollarni tashkil etadi. Bu loyihalarning iqtisodiy samaradorligiga keladigan bo‘lsak, birgina gidroelektrostansiyalar kaskadi ishga tushirilishi 310 million kub metr gazni iqtisod qilish, 430 ming xonadonga elektr uzatish imkonini beradi.

Ushbu quvvatlar ishga tushirilishi natijasida viloyatning generatsiya quvvati 2,3 barobar ortib, 2141 megavattga yetadi. Bu esa viloyatning elektr energiyasiga bo‘lgan yillik 5,5 milliard kilovatt-soatlik talabini to‘liq qoplaydi. Ortgan 30 foiz elektr energiyasi qo‘shni viloyatlarga yo‘naltirilishi mo‘ljallanmoqda. Shuningdek, mazkur elektrostansiyalarda 253 kishi doimiy ish o‘rniga ega bo‘ladi.

Qisqasi, sohadagi islohotlar mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasiga ehtiyojini ta’minlash bilan birga mintaqa energetik barqarorligiga ham xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Namangan tumanidagi “Nam Motor Servis” korxonasi faoliyati bilan ham tanishdi. To‘rt gektardan ortiq hududda joylashgan ushbu investitsion loyihaning dastlabki bosqichi 2021-yilda ishga tushirilgan. Xitoyning zamonaviy texnologiyalari o‘rnatilgan. Natijada yiliga o‘n ming dona elektr dvigatel, ikki ming dona suv nasosi ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Eng muhimi, yuz kishi ish bilan ta’minlandi.

Korxona mahsulotlari energiya tejamkorlik klassining “IE2” darajasida bo‘lib, xalqaro standartlarga javob beradi. Ular mamlakatimizdagi kon-metallurgiya kombinatlari, suv xo‘jaligi hamda Markaziy Osiyo davlatlariga yetkazib berilmoqda.

Quvonarli tomoni, elektr dvigatellar ishlab chiqarish 60, suv nasoslari 100 foiz mahalliylashtirilgan. Shu yerda korxonaning istiqboldagi rejalari, navbatdagi bosqichlar haqida ma’lumot berildi. Loyihaning ikkinchi bosqichi may oyida, yakuniy bosqichi esa yil oxirigacha ishga tushadi. Bu orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi ortib, hamkorlik geografiyasi kengayadi.

Prezidentimizning viloyatga tashrifi, xalq ichiga kirib, ular bilan dildan suhbatlashgani, aholiga yaratilgan sharoitlar bilan shaxsan tanishishi namanganliklar ko‘nglida faxr-iftixor tuyg‘ularini kuchaytirdi. O‘z navbatida, bu sa’y-harakatlar bizga ham katta saboq bo‘ldi. Zero, doimo xalq dardu tashvishi bilan yashash, odamlar hayotini farovonlashtirishga qaratilgan amaliy ishlarda faollik ko‘rsatish biz, deputatlar zimmasidagi mas’uliyatli vazifadir.

Mazkur hududdan saylangan deputat sifatida aholining huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirish, umuman, deputatlik faoliyatimizni tashkil etishda e’tibor qaratishimiz zarur bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab oldik. Xususan, har oyning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish maqsadida viloyat mahallalarida bo‘lib, saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazamiz.

Tashrif doirasida odamlar turmush darajasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildiki, bularning barchasi yaqin yillarda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, yurtdoshlarimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, biz bu borada yanada faol bo‘lib, ushbu topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini o‘rnatib boramiz.

Nigoh

SHAHAR PIYODALARNIKI BO‘LISHI KERAK

Bugun azim boshkentimiz kundan kun chiroy ochib bormoqda. Dunyo megapolislariga tenglashayotgani ham bor gap. Poytaxtga ikki-uch yil kelmagan kishi uning shu qadar o‘zgarib ketganiga ishonmaydi. Bir-biridan mahobatli osmono‘par binolarni ko‘rib, O‘zbekistonda yurganiga shubha qilsa ham ajabmas.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorliklar aholining yaxshi sharoitda yashashi, qulay joylarda harakatlanishiga zamin yaratmoqda. Bundan bir necha yil avval avtobus bekatlari faqat markaziy ko‘chalarda, piyodalar yo‘lagi ham katta ko‘chalar bo‘yida bo‘lardi. Bugun esa yurtimizning chekka-chekka mahallalaridagi ko‘chalargacha piyodalar yo‘lagi qurilyapti, aholiga qulayliklar yaratilyapti. Bekatlar ham avvalgidek tadbirkorlar tomonidan o‘zlashtirilib, eshiklariga qulf urilmagan. Har bir bekat eng so‘nggi texnologiyalar bilan jihozlangan. Aholiga mana shunday qulayliklar yaratilayotgani tahsinga loyiq, biroq odamlarni o‘ylab amalga oshirilayotgan ishlar ba’zan ularning ziyoniga xizmat qilayotganiga nima deysiz?..

Gap shundaki, shahrimiz piyodalarga moslashtirilmagan. Asosiy e’tibor hamon avtomobillar bo‘lib qolmoqda. Buni esa ko‘chaga chiqib, bir oz sayr qilishingiz bilan sezishingiz mumkin.

Piyodalar uchun mo‘ljallangan yo‘laklar ba’zi joylarda aholi harakatlanishi uchun qulay bo‘lsa, ayrim joylarda ikkita odam yonma-yon tursa, siqilib qoladigan qilib yotqizilgan. Velosipedda harakatlanadiganlarni hali hisobga qo‘shmadik. Ular odamlar ustidan uchib o‘tadimi? Yo‘q, albatta, ular ham o‘zlariga ajratilgan yo‘laklarda bemalol harakatlangisi keladi. Ana shunday yo‘laklar bugun aholiga bir qancha muammolar tug‘dirmoqda. Velosiped va elektrosamokatlar ehtiyotsizlik va yo‘lakning o‘ta torligi sabab piyodalarni jarohatlash holatlari ham uchrab turibdi. Yo‘laklarning kutilmaganda tugab qolishi ham aravachada harakatlanadiganlarga noqulaylik tug‘dirmoqda. Ba’zi joylarda velosiped va elektrosamokatlar harakatlanishi uchun yo‘laklar ajratilmagan. Bu esa piyodalar va elektrosamokatda harakatlanadiganlar orasida ko‘ngilsiz hodisalar ro‘y berishiga sabab bo‘lmoqda.

— Bolalarim bilan kechki sayrga chiqishni odat qilganmiz. Kichkinam hali o‘zi yurolmaydi. Shuning uchun ko‘chaga bolalar aravachasida olib chiqaman. Ammo ba’zida yo‘lakchaning noqulayligi pand beradi. Tepalikka chiqish yoki pastlikka tushish kerak bo‘lsa, aravachani zinadan ko‘tarib tushaman. Bolalar aravasi uchun moslashtirilmagan. Ba’zida yo‘lakchalar tor yotqizilgani uchun sig‘may qolamiz. Ortimizdan velosiped yoki elektrosamokat kelib qolsa, ilojsiz ularga yo‘l bo‘shatib beramiz. Agar sergak bo‘lmasak, ular bolalarga shikast yetkazishi mumkin, — deydi Gulshoda ismli yo‘lovchi.

— Ikki yil avval ko‘chamizga piyodalar yo‘lagi yotqizilgan edi. Ammo yo‘lakchaga ikki kishi zo‘rg‘a sig‘adi, xolos. Yana uning yoniga velosipedlar harakatlanishi uchun yo‘lakcha ham ajratilgan. Boshqa joylarda bo‘lsa, yo‘lakchalar keng, odamlar harakatlanishiga qulay. Yaqinda nevaram bilan o‘sha yo‘lakchada ketayotganimizda tez kelayotgan elektrosamokat ehtiyotsizlik sabab nevaramni urib ketdi. Chekkaga chiqishga ulgurolmadik. Nevaramning oyog‘i sinib, bir oy gipsda yotdi. Mana shunday ishlarni qilayotganda odamlarga noqulaylik tug‘diradigan tomonlarini o‘ylab ko‘rishmasmikan? Bunday tor yo‘lakda odamlar qanday qilib bemalol harakatlansin? — deydi Anna ismli onaxon.

Ha, chindan ham e’tibor berib qarasak, piyodalar uchun yotqizilgan yo‘lakchalar turli o‘lchamda ekanini ko‘rish mumkin. Qizig‘i, ba’zi piyodalar yo‘lakchasi tugallanmay, chala qolib ketgan. Ba’zilariga aravacha o‘tishi uchun maxsus joylar ham qilinmagan. Markaziy ko‘chalardagi piyodalar yo‘laklari ham turli kattalikda. Bir odam kelsa, ikkinchisi siqilib o‘tadi. Velosiped-u elektrosamokatlarni aytmasa ham bo‘ladi. Odamlar ularni o‘tkazib yuborish uchun yo‘lak chetiga ekilgan maysalarni payhon qilishga majbur. Yoki tez harakatlanayotgan velosiped, elektrosamokat kelib, odamlarga uriladi. Natijada kimdir tan jarohati oladi.

Shu o‘rinda, savol tug‘iladi. O‘zi piyodalar yo‘lagining kengligi qancha bo‘lishi kerak? Qanday standartlar asosida quriladi? Shaharda piyodalar asosiy planga chiqishi uchun nima qilish kerak?

— Piyodalar yo‘lakchalari uchun ma’lum bir standart belgilanmagan, — deydi shaharsoz Iskandar Soliyev. — Ular hududdagi qatnovga qarab yotqiziladi. Ya’ni qayerda aholi ko‘proq harakatlansa, o‘sha yerda kattaroq, odamlar kamroq bo‘ladigan joyda kichikroq qilinadi. Ba’zi joylarda bino va daraxtlar borligi ham piyodalar yo‘lakchasining kengligiga xalal beradi. Shu bois, unday joylarda kichikroq piyodalar yo‘lagi tashkil qilinadi. Ammo bugungi kunda shahar infratuzilmasiga munosabat juda yomon, odamlarning o‘zi muammoni bartaraf etish mumkinligiga ishonmaydi.

Barchamiz har kuni piyoda yurarkanmiz, uy eshigidan chiqishda yoki ko‘chada turli to‘siqlarga duch kelamiz. Aslida esa bunday bo‘lishi kerak emas. Piyodalar harakati shaharlarda to‘siqsiz bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi kabi muammolar bir qarashda kichik bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin yosh bolali ayol aravachasi bilan tugallanmay qolgan yo‘ldan qanday harakatlanadi? Kengligi yetarli bo‘lmagan yo‘lakdan harakatlanayotgan odamlar qanday qilib bemalol yuradi? Qolaversa, u yerdan velosipedu elektrosamokatlar ham harakatlanishi kerak. Ularning tor yo‘lakdan harakatlanishi esa odamlarga qator muammolar keltirib chiqaradi.

Aynan piyodalar yo‘laklarini yotqizish bo‘yicha xorij tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, ularda ma’lum standartlar joriy etilgan. Misol uchun, Yaponiyada piyodalar uchun yo‘lakchalar bir xil shaklda yotqizilar ekan. Yo‘lakchalar sifatli qoplamalardan iborat bo‘lib, chidamlilik darajasi yuqori. Piyodalar va velosipedlar uchun yo‘laklar alohida ranglar bilan ajratilgan, har mavsum qayta bo‘yab chiqiladi. Bolalar aravachasi o‘tadigan joylar ham qulay. Kunchiqar yurtda piyodalarga harakatlanish uchun katta imkoniyatlar yaratilgan.

Bizda esa piyodalar yurishi uchun mo‘ljallangan yo‘laklar yotqizilganda bir bo‘yaladi yoki hali bo‘yalmay yaroqsiz holga kelib qoladi. Ishonmasangiz, ko‘chaga chiqib qarang. Sanoqli piyodalar yo‘lakchalari o‘z sifatini yo‘qotmagan.

Xo‘sh, yuqoridagi kabi holatlarning oldini olish, aholiga qulaylik yaratish uchun nima qilish kerak? Mutaxassislarning fikricha, birinchi o‘rinda shahar piyodalarniki bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, qurilish loyihalari tasdiqlanayotganda piyodalar uchun mo‘ljallangan yo‘laklar qulay bo‘lishiga ahamiyat qaratish kerak. Ishning sifatiga ham jiddiy e’tibor berish zarur.

Mansurbek JABBOROV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

DAXLDORLIK HISSI

KURASHMOQ — O‘ZINI O‘ZI YENGMOQ

Abduxalil MAVRULOV, tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ikkinchidan, davr o‘zgarishi, hayotimizga yangi texnika-texnologiyalarning kirib kelishi, barcha sohadagi innovatsion taraqqiyot tufayli ehtiyojlarimiz ko‘lami ham tobora kengaymoqda. Iqtisodiyotning taraqqiyoti, ilm-fan yutuqlarining hayotimizga keng joriy etilishi, turmushimizning kundan kunga farovonlashib borishi moddiy, ma’naviy, ta’limiy ehtiyojlarimizni ko‘paytirib yubordi. Ishtahamiz ochilgandan ochilib bormoqda.

Ammo aholi soni keskin ko‘paygani holda tabiiy boyliklarimiz, xususan, yer osti va yer usti boyliklarimiz ko‘paygani yo‘q. Ayniqsa, suv resurslari hajmi, kishilar jon boshiga taqsimlanishi va sarflanishida muammolar paydo bo‘layotgani ham bor gap. Ya’ni mavjud imkoniyatlar va tobora ortib borayotgan ehtiyojlarimiz o‘rtasida nomutanosiblik sezilmoqda.

Uchinchidan, bugungi dunyoning shiddat bilan globallashuvi natijasida yuz berayotgan og‘ir oqibatlar barcha joylarda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham yaqqol sezilmoqda. Qadriyatlarning qadrsizlanishini, ming yillar davomida shakllangan axloqiy tamoyillarimizning yemirila borishini, biz uchun muqaddas bo‘lgan oila institutiga putur yetkazilayotganini sezmaslik mumkin emas.

Ana shu omillar barchamizdan bugungi vaziyatga teran ko‘z bilan qarashni, real holatni to‘g‘ri tushunish va shunga mos ravishda ish tutishni talab qilmoqda. Biz yuqorida sanab o‘tgan muammolar, mulohazalarga har kimda o‘ziga yarasha qarash, yechim bor. Har kim o‘z qarichi bilan o‘lchaydi. Shu o‘rinda, men ham o‘sha muammolarni hal etish yo‘lini o‘zimcha tahlil qildim. Bu — KURASH, yana ham aniqroq aytsak, kishining o‘zini o‘zi yengishidir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “kurashmoq” so‘zi biror narsaga erishish, biror maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun harakat qilish, faoliyat ko‘rsatish, tirishish ma’nolari sifatida beriladi. “Kurashchi” so‘zi esa o‘z maqsadi, g‘oyasi yo‘lida faol harakat qiladigan, bunga monelik qiluvchi g‘oyalarni yengish uchun olishuvga, hatto dushmanga qarshi jang qilishga ham tayyor bo‘lgan shaxs sifatida ta’riflanadi.

Demak, “kurashuvchi”, birinchidan, o‘zining aniq maqsadiga ega, ikkinchidan, harakat faoliyatini belgilab beruvchi, mustahkam o‘ylangan g‘oyaga ega, uchinchidan, ijtimoiy hayotda, ish jarayonida, o‘qishda faol shaxs. Bugun jamiyatimizda bundaylar juda ko‘p. Yuqorida sanab o‘tgan yutuq va muvaffaqiyatlarimiz omili ham shunday kishilar tufaylidir.

Biroq davr shiddatini sezmayotgan, eskicha fikrlash tarzidan qutula olmayotgan, jamiyat bilan ijtimoiylashuv jarayonida sust, faqat o‘zining bugungi huzur-halovatini o‘ylaydigan vatandoshlarimiz ham yo‘q emas. Nazarimizda, ularga, eng avvalo, kurashuvchanlik kayfiyati yetishmayotganga o‘xshaydi. Kimnidir jismoniy jihatdan mahv etishimiz, yana kimdandir aql-farosat borasida ustun, boshqa holatda tarbiya nuqtayi nazaridan bir bosh baland bo‘lishimiz mumkin, ammo o‘zimizni o‘zimiz yengolmasligimiz, o‘zimiz bilan kurashda no‘noq bo‘lishimiz ehtimolga yaqin.

Kurashuvchanlik, deganda odamlarning bir-biri bilan emas, aksincha, o‘zi bilan o‘zi kurashishini nazarda tutyapmiz. Shu o‘rinda, mutafakkir Arastuning quyidagi gaplari juda o‘rinlidir: “Istaklarini yenga olganlar bukilmas insonlardir. O‘zini mag‘lub eta olganlar jasur va mardonadirlar”.

Mutafakkir allomalar, olim, mutaxassislar doim insonning mohiyatini aniqlashga intilgan, bu yo‘lda zahmat chekkan. Biroq hozirgacha insonning bosh mohiyati nimadan iborat ekanini anglatuvchi, umume’tirof etilgan biror tushuncha mavjud emas. Ba’zilar uni insonning erkinlikka intilishida, boshqalar shaxs mohiyatini mukammallik sari harakat qilishda ko‘radi. Iogann Volfgang Gyote esa “Men odam edim, odam demak — kurashchi demak”, deb inson mohiyatini kurashlarda toblanishda bilgan.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk zotlar esa insonning o‘zi bilan o‘zi kurashishini nafs masalasida ko‘radi. Kimki o‘zini o‘zi yengolmasa, o‘zi bilan o‘zi kurashishga ichki ehtiyoj sezmasa, shubhasiz, u nafsning quliga aylanadi. Shu o‘rinda, Abu Nasr Forobiyning quyidagi fikrlari hozirgacha dolzarbligini ta’kidlash lozim: “Inson nafsiga (ruhiga) xuddi uning vujudiga o‘xshash sog‘liq va xastalik ham xosdir. Nafsning sog‘lomligi shunda ifodalanadiki, uning ichki holati va turli qismlari o‘rtasida uyg‘unlik vujudga keladi. Buning natijasida inson doimo fazilatli, olijanob ishlarni qiladi va go‘zal xulqlar sohibi bo‘la oladi. Nafsning (ruhning) xastaligi shunda ifodalanadiki, uning ichki holati va qismlari o‘rtasida muvozanat buzilgan bo‘ladi. Shu tufayli odam doim razil ishlarni, xunuk xatti-harakatlarni qilishga odatlanib qoladi”.

Insonning o‘zi bilan o‘zi kurasha olmasligi qanchalar yomon, qabih natijalarga olib kelishini o‘z davridayoq o‘ta klassik shaklda anglagan buyuk Abu Rayhon Beruniy shunday ta’riflaydi: “Nafs balosi insonni turli illatlar — ochko‘zlik, molparastlik, shuhratparastlik bilan xastalantiradi. Bularning bari odamlarda boylikka hirs, kuch-qudrat va hokimiyatga ishtiyoq kayfiyatini keltirib chiqaradi. Nafsning buzilishi va unda turli illatlarning aql ustidan hukmronligi kishilarning o‘zaro munosabatida raqobat va tortishuvni, dushmanlik, nafrat, hasad tuyg‘ularini, munofiqlik va vafosizlikni vujudga keltiradi. Bunday illatlar paydo bo‘lishi bilan kishilarning bir-biriga hurmati va mehr-muhabbati yo‘qoladi, odamlarning yuragi dag‘allashadi, nodonlik va yovuzlik, razolat va adolatsizlik qila boshlaydi”.

Beruniy bobomiz fikricha, jamiyatda odamlarning buzilishi nafs xohishiga berilib ketish tufayli sodir bo‘ladi. Odamlarning nafs balosiga yuz burishi Tangrining qahr-u g‘azabini keltiradi. Shu bois, insoniyat boshiga vaqti-vaqti bilan turli tabiiy va ijtimoiy ofatlar kelib turadi. Tabiiy kuchlarning oqibati bo‘lmish ofatlar — suv toshqini, shiddatli bo‘ron, vabo kasalliklarining paydo bo‘lishi ham nafs balosiga yo‘liqqan odamlardan Tangrining g‘azablangani natijasidir.

Abu Homid G‘azzoliy esa nafs balosini bu yorug‘ dunyodagi eng katta balo sifatida ko‘radi. “Ey inson, — deydi alloma, — bilib qo‘yki, doim yomonlikni xohlab turuvchi nafs senga shaytondan ham xavfliroq dushmandir. Shayton nafsning hoyu havasi sababli bo‘yningga minib olib, seni Allohning yo‘lidan adashtiradi”. Allomalarimiz o‘zini yengib, nafsini sindirib tarbiyalay olgan kishi yolg‘iz o‘zi bir shaharni bosib olgan jangchidan ham kuchli ekanini ta’kidlaydi.

Demak, yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, haqiqiy inson, o‘zi bilan o‘zi kurashuvchi va g‘olib shaxs, eng avvalo, nafsi ustidan zafar quchgan odamdir.

Mustabid tuzum va nodemokratik davlatlarda insonning faoliyati muntazam boshqariladi, turli manipulyatsiya yo‘li bilan kishilarning tafakkur tarzi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, g‘oyaviy-mafkuraviy ta’limotlar asosida

bo‘ysunuvchanlik kayfiyati shakllantiriladi. Odamlarning yangi tashabbus bilan chiqishiga turli yo‘llar bilan to‘siqlar qo‘yiladi.

Bugun esa mamlakatimizda ochiq, demokratik davlat qurish maqsadlariga erishishning real imkoniyati yaratildi. Xalqning jamiyat hayotidagi o‘rni aniq belgilab berildi. Xalqimizning davlatga, davlat organlariga munosabatida ochiqlik, shaffoflik muhiti yaratilgan. Bularning bari, o‘z navbatida, odamlarga jamiyat va davlat ishlarida emin-erkin ishtirok etish, jarayonlarning faol qatnashchisiga aylanish imkonini bermoqda.

Biroq mavjud imkoniyat, shart-sharoitlarga qaramasdan, hali ham jamiyatimizda turli illatlar botqog‘idan qutula olmayotgan, nafs balosini faoliyatidagi asosiy mezonga aylantirayotgan vatandoshlarimiz yo‘q emas. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda deyarli har kuni bunday “qarmoq”qa ilinayotgan, xalq va davlat mulkini talon-taroj qilib kelayotganlar to‘g‘risida xabar-ma’lumotlar berilsa-da, o‘zini o‘zi yenga olmagan, nafs quliga aylanganlar uchrab turibdi.

Bunday salbiy holatlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab, shubhasiz, ayrimlarga o‘zi bilan kurashish madaniyati yetishmasligidir. Jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun o‘zining tom ma’noda INSON sifatidagi manfaatlari yo‘lida kurashuvchining ba’zi fazilatlarini quyidagi tartibda bayon etishni lozim topdik.

Birinchidan, o‘zi bilan o‘zi kurashib, nafs balosidan, turli illatlardan poklanmoqchi bo‘lgan har bir kishi, eng avvalo, 3 ta muhim fundamental omilga suyanishi lozim. Bular:

a) o‘z aqlini boshqara olish va pok qalbga ega bo‘lish; b) jamiyatda umume’tirof etilgan milliy qadriyatlar, ijtimoiy tarbiya mezonlariga amal qilish; d) demokratik asosda qabul qilingan Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga bo‘ysunish.

Nazarimizda, har birimiz o‘zimiz bilan bo‘ladigan kurashda g‘olib chiqishimizning eng muhim yo‘li aql bilan ish tutish va qalbimiz qa’ridan chiqadigan chaqiriq, nidolarga quloq tutishdir. Faqat aqlga ustuvorlik berish yoki qalb so‘ziga quloq tutishning o‘zi ba’zan bizni aldashi mumkin. Agar insonni boshqarishda ushbu ikki fenomen hodisaga bir paytning o‘zida e’tibor bersak, shubhasiz, eng to‘g‘ri yo‘lni tanlagan bo‘lamiz.

Boshqa tarafdan, o‘zbek xalqining mavjudligi, ruhiyati, milliy qiyofasi ming yillar davomida shakllangan qadriyatlari bilan bog‘liq. Milliy qadriyatlarimiz doim bizni turli balo-qazolardan asrab kelgan, jamiyat ijtimoiy mavjudligiga kuch bergan, uning uyat, or-nomus, andisha kabi sifatlari esa jamiyatdan begonalashuvimizga to‘siq bo‘lgan.

Shu bilan birga, taraqqiyotning zamonaviy andazalari barchadan butun jamiyat tomonidan e’tirof etilib, qabul qilingan qonunlar, me’yoriy hujjatlarga amal qilishni talab etadi. Qonunlardan qo‘rqish emas, ularni e’tirof etsak, faoliyatimizni tartibga soladigan omil ekanini anglab yetsakkina, o‘zimizdagi turli illatlarni yengishga, harakatsizlikka, befarqlikka, odobsizlikka qarshi kurashishimiz mumkin.

Ikkinchidan, o‘zi bilan o‘zi kurashuvchi har qanday inson o‘z g‘oyalariga ega bo‘lishi lozim. Agar uning g‘oya va maqsadlari jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan, umume’tirof etilgan yuksak g‘oyalarga mutanosibligi ta’minlanmas ekan, bunday holda biror-bir natijaga erishish qiyin. Boshqacha aytganda, kurashuvchining asoslanmagan faoliyati nimaga yo‘naltirilmasin, hamisha muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Bu esa o‘sha odamni ergashuvchi, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmagan kishiga aylantiradi. U oxir-oqibat hissiyot quliga aylanadi. Hissiyot har birimizda bizni o‘rab turgan dunyo, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar haqida muayyan ma’lumotlar olishda qo‘l keladi. Ammo bu jarayonda faqat hissiyotga suyanish, unga ustuvor ahamiyat berish har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Demak, shu ma’noda, o‘zi bilan kurashadigan har bir kishi aql va hissiyot uyg‘unligiga erishsagina, o‘zini yuksak maqsadlar yo‘lida safarbar qilishga, yagona to‘g‘ri yo‘lni topishga qodir bo‘ladi.

Uchinchidan, insonning o‘zi bilan kurashishi oson ish emas. Buning uchun u, avvalo, o‘zidagi salbiy holatlar, turli illatlar, jumladan, dangasalik, yalqovlik kabi salbiy

sifatlarni bartaraf etishdan manfaatdor bo‘lishi kerak. Aksiga olib, biz tabiatan erinchoqmiz. Ko‘p hollarda ana shu salbiy holatdan chiqib ketishimiz juda qiyin bo‘ladi.

Nazarimizda, bunday vaziyatda o‘zimiz bilan kurashishimiz uchun bizga yuksak madaniyat va axloq zarur. Agar faoliyatimizni ana shu fenomen hodisalarga tayangan holda olib borsak, so‘zsiz, natijaga erishamiz. Bejiz axloqqa asoslanmagan harakat, ayniqsa, faollik — nodonlik, deyilmaydi.

Ayrim hollarda ba’zi yurtdoshlarimiz bilan suhbatlarda “sekin-sekin ishga borib kelib turibmiz”, “qimirlab turibmiz” kabi so‘zlarni eshitamiz. Nazarimizda, ularning bu gapi faoliyatsizlik, harakatsizlik, “kunni amallab o‘tkazish”dan boshqa narsa emas. Axir biz ishga “borib kelish”, “qimirlab turish” uchun bormaymiz-ku! Bunday kayfiyatdagi odamlar, hech mubolag‘asiz, o‘zini yenga olmagan, turli illatlarga qul bo‘lganlardir.

To‘rtinchidan, kishining o‘zi bilan kurashuvi qarshilikni yengishi hamdir. Odatda qarshilik ko‘pincha tashqi qarshiliklar sifatida namoyon

bo‘ladi. Biroq mazkur holatda gap insonning o‘zidagi ichki qarshilik to‘g‘risida ketyapti. Bunday vaziyatda, nazarimizda, inson o‘zi uchun eng zarur bo‘lgan 3 ta xususiyatga ega bo‘lishi kerak: ahd qilish, jiddu jahd, sobitqadamlik. Ushbu omillar to‘laqonli mavjud bo‘lgan har bir insonda o‘zini o‘zi yengish uchun quvvat paydo bo‘ladi.

Bekorchi odam nafaqat jismoniy jihatdan, balki tafakkur, o‘zini anglash, jamiyatga munosabatda ham harakatsiz va sustkash kimsadir. Bundaylar yangi g‘oyalarga muhtoj emas. Ularda hatto o‘z hayoti, turmush tarzini yaxshi tomonga o‘zgartirish, yangilik kiritish uchun niyat ham bo‘lmaydi. Bunday odamlarni barvaqt o‘lim topganlar, deyish ham mumkin. Shuning uchun ham undaylarda biror ishga ahd qilish, sobitqadamlik, jiddu jahd bo‘lmaydi.

Husayn Voiz Koshifiy insonning o‘zi bilan kurashga kirishishi uchun, eng avvalo, ahd qilish lozim, deydi. Ahd qilishning ma’nosi ko‘ngil xohlagan ish ustida mahkam turishdir. Ahd murod va maqsadlar karvonining boshlovchisi, har qanday ish va mushkulotlarning hal qiluvchisidir. Haqiqiy ahd shundayki, bir kishi biror ishni bajarish uchun bel bog‘lasa va bir muhim ishni bitirishga kirishsa, to‘siq va qarshiliklarni yengib, o‘z maqsadiga erishishda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaydi.

Alloma “jidd”ning ma’nosini maqsadlarga yetish uchun ko‘ngilda yangi niyat paydo bo‘lishida ko‘radi. “Jahd”ning ma’nosi esa shu niyatga yetish uchun qattiq harakat qilishdir. Jiddu jahd barcha yaxshilarning namunali sifatlari ro‘yobi asosida amalga oshadi. Bu sifat himmatga asoslanadi. Odamning himmati qanchalik ulug‘ bo‘lsa, maqsadga yetish jiddu jahdi shunchalik ko‘p bo‘ladi. Himmati baland kishi jiddu jahd qilishda mashaqqatlardan qo‘rqmaydi.

Shuningdek, o‘zini o‘zi yengishga kirishgan har bir insondan sobitqadam bo‘lish ham talab etiladi. Sobitqadam, ya’ni azmi qat’iylikdan murod — ko‘zlangan ish sari dadil qadam qo‘yish, bu ish oxiriga yetmaguncha undan voz kechmaslik, bu ishga xalal bergan to‘siqlarni yengishda doim mahkam turishdir. Haqiqatan, sobitqadamlik baxtiyorlik va barakot daraxtining samarasi, xurramlik foydasining natijasidir. Sabot uzra qadam qo‘ygan kishi undan ko‘p hosil va manfaatlar oladi, xalqqa va farmonbardorlarga foyda yetkazish kabi xayrli ishlarni ado etadi.

Yuqoridagi iqtibosda alloma insonni o‘zi bilan o‘zi kurashishga chaqirmoqda. Aslida ham shunday. Kurashish to‘siqlarni yengish, o‘zini qiynash, maqsad sari intilish, harakat, fidoyilik ko‘rsatish, xotirjamligi va rohatdan voz kechish, jamiyat uchun foydali amallar qilishga o‘zini safarbar etishdir.

Beshinchidan, o‘zi bilan kurashga kirishish insondagi mas’uliyat kuchi bilan ham belgilanadi. Basharti, o‘zimiz va jamiyat oldidagi mas’uliyatni sezmas, uning zaruratini har doim his etib turmas ekanmiz, o‘zimiz bilan kurashga chiqishimiz amri mahol bo‘lib qolaveradi. Har qanday odam o‘zi uchun muhim biror maqsadga erishish yo‘lida harakat qilish usulini tanlaganda, o‘z tabiatiga ko‘ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq. “Mas’uliyat” so‘zi shaxs lafzidan chiqqandan so‘ng uning salmog‘i, ahamiyati, ijtimoiy nufuzi nihoyatda katta kuchga aylanadi.

Mas’uliyat — ma’naviy, ijtimoiy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo‘llanadigan tushuncha. Uning ma’nolari ko‘p. Mana ba’zilari: mas’uliyat ma’naviyat nuqtayi nazaridan yondashilganda burch; ijtimoiy ma’noda jamiyat va boshqalar oldidagi ma’naviy qarzdorlik; ma’muriy jihatdan ijtimoiy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo‘lishi; huquqiy yondashuvda esa, asosan, yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma’noli kategoriya.

Shuning uchun ham insonning o‘zini o‘zi yengishida mas’uliyat hissining o‘rni katta. Mas’uliyat doimo insonni yangilikka, ijtimoiy foydali harakatga undaydi, eskilikni tark etishga chorlaydi.

Oltinchidan, insonning o‘zini o‘zi yengishi o‘zidagi qo‘rquvni bartaraf etishni ham talab etadi. Barchamiz tirik jonmiz. Insonga tegishli barcha fazilatu illatlarga qay darajadadir daxldormiz. Ma’lumki, har bir insondagi ichki qo‘rquv hissi jamiyat oldidagi mas’uliyatga munosabatimizni muayyan chegarada ushlab turishni talab etadi.

Kurashuvchan kishi — mard, qo‘rqmas shaxs. Biroq mamlakatimizda yaratib berilayotgan qator erkinliklar, jamiyatning ochiqligi, o‘z fikrini bemalol bildirishdan iborat ijtimoiy-ma’naviy muhit yaratilganiga qaramasdan, ichki qo‘rquv hissidan qutula olmayotgan yurtdoshlarimiz ham yo‘q emas. Qo‘rquv hissi insonning faol harakat qilishi, yangilik yaratishi, o‘z g‘oyasiga ega bo‘lishiga monelik qiladi. Buyuk vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariy bejiz “Qo‘rquvga mubtalo bo‘lgan kishi (oftob tig‘idan pana izlagan misoli) faqat qochishdan najot izlaydi”, deb uqtirmagan.

Keling, yaxshisi, har birimizning o‘zimiz bilan kurashga kirishishimizga salbiy ta’sir etayotgan qo‘rquv hissi nimalarga olib kelishi haqida ikki og‘iz fikrlashaylik. Nazarimizda, ularning ba’zilari quyidagilardan iborat:

a) bunday toifadagilar, eng avvalo, o‘z erkinligini yo‘qotadi. Ular har bir masalada rahbarining fikri asosida ishlashga ko‘nikib qoladi. O‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lmaslik shaxsda haddan tashqari, keragidan ortiq ehtiyotkorlikni yuzaga keltiradi. Bunday odam xato qilishdan qo‘rqadi, o‘zini yangi ishlarga safarbar eta olmaydi;

b) insonning ichki qo‘rquvi tashabbuskorligini bo‘g‘adi. Bugun tashabbus ko‘rsatmasdan ishlab bo‘lmaydi. Ichki qo‘rquv shaxsning erkin tafakkur qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Pirovard natijada bundaylar faqat topshiriqni bajaruvchi, belgilangan rejadan “bir qadam ham chetga chiqmaydigan vintik”ka aylanib qoladi;

d) ichki qo‘rquv tufayli o‘zini o‘zi yenga olmaydigan odamda jur’atsizlik paydo bo‘ladi. Jur’atsiz odam faqat bir narsani o‘ylaydi: “Xato qilib qo‘ysam, nima bo‘ladi?”. Jur’atsiz kishilar yutuqqa qaraganda ham ko‘proq mag‘lubiyat haqida o‘ylaydi. Ular uchun eng muhimi — mag‘lubiyatga uchramaslik. Shuning uchun ham bundaylar doim o‘ziga “suyanchiq” qidiradi. Ularda birovga tobelik pozitsiyasi kuchli bo‘ladi;

e) qo‘rquv natijasida o‘zi bilan kurashishdan voz kechganlar odatda eskilikka yopishib qolgan, mohiyatan konservator bo‘ladi. To‘g‘ri, biz uchun qator masalalarda konservatorlik kerak. Biroq u sog‘lom konservatorlik bo‘lishi maqsadga muvofiq. Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab saqlash, tarbiya tizimidagi an’anaviylikka amal qilish, asrlar osha yangi ma’no-mazmun bilan boyib kelayotgan sof o‘zbekona insonparvarlik, odamgarchilik, yuksak axloqiy tamoyillarda sog‘lom konservatizmni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Biroq bugun butun dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda yana eskicha fikrlab, “Ota-bobolarimiz shunday qilib kam bo‘lmadi-ku”, deb o‘z-o‘zimizdan qoniqish hosil qilib o‘tirsak, ko‘p narsani boy berib qo‘yamiz;

f) o‘zi bilan kurashishda qo‘rquv kasalligiga duchor bo‘lganlarda ijtimoiy hayotda, barcha sohalarda hujumkorlikka qaraganda himoya pozitsiyasi doimo kuchli bo‘ladi. Ma’lumki, insonning mohiyati uning doimo olg‘a yurishida, barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tishdagi qat’iyatida, hujumkorligida ko‘rinadi. Himoya pozitsiyasi insonni harakatsizlikka, qilayotgan ishlarida ishonchsizlikka olib boradi.

Darhaqiqat, bugun turli tahdidlarning tobora ko‘payib borishi, dunyo bo‘yicha manfaatlar kurashining ortib borayotgani har birimizdan dadil, yuksak shijoat bilan o‘qishni, mehnat qilishni, mamlakat va millat kelajagi uchun o‘zni safarbar etishni talab qilmoqda. Buning uchun, eng avvalo, o‘zimizda tirishqoqlik, qat’iyat, yangilik sari intilish, o‘zimizni isloh etish kabi sifatlarni shakllantira olsak va albatta, o‘zimizni o‘zimiz yenga olish kayfiyatiga ega bo‘lsak, doim ko‘zlagan marralarimizga yetamiz.

Ro‘yxatga olish mamlakat aholisining aniq sonini, tarkibi va yashash sharoiti haqidagi ma’lumotlarni bilish imkonini beradi.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 29-mart, 63-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

TAHLIL VA TAQQOS

AHOLINI RO‘YXATGA OLISH SHUNCHAKI STATISTIKA EMAS

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi

So‘nggi yuz yilda O‘zbekistonda doimiy aholi sonining o‘zgarishi (2023-yil 1-yanvar holatiga, million kishi)



Prognozlarga ko‘ra, respublika aholisi yiliga o‘rta hisobda 711 ming kishiga ko‘payadi. O‘sish shunday yuz bergan taqdirda ham shifokorlar va hamshiralar zimmasiga tushadigan yuklama ortib ketmasligi kutilmoqda. 2035-yilga borib, shifokorlar bilan ta’minlanish darajasi 10 ming kishiga 28,4 nafarni, hamshiralar bilan ta’minlanish darajasi esa 116,8 nafarni tashkil etadi.

Ro‘yxatga olish natijalari nafaqat biz, balki kelajak avlod uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugun biz qanday yashaganimiz va qanday imkoniyatlarga ega bo‘lganimiz tarixga muhrlanib, avlodlarga ijtimoiy meros bo‘lib qoladi.

Boshlanishi 1-betda

Shu kabi jihatlar nazarda tutilgan holda, davlatimiz rahbarining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da mamlakatimizda aholini ro‘yxatga olishni 2025-2026-yillarda amalga oshirilishi belgilandi.

— Qarorga muvofiq, aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish, uni o‘tkazish va natijalarini e’lon qilish quyidagi tartibda tashkil etiladi, — deydi Statistika agentligi boshqarma boshlig‘i Qobil Berdiqulov. — Birinchidan, 2024-2025-yillarda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘riladi. Bunda uning mazmun-mohiyatini ommaga tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarida foydalanish uchun videorolik, banner, flayer va bukletlar tayyorlanadi.

2021-yilda sinov tariqasida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida tayyorlangan savolnomalar shakllari, “Aholini ro‘yxatga olish” axborot tizimi takomillashtiriladi, “STATA” amaliy dasturiy paketi litsenziyasi xarid qilinib, unda ro‘yxatga olish natijalarini aks ettiruvchi jadvallarning namunalari shakllantiriladi hamda tadbirning tashkiliy rejasi ishlab chiqiladi.

Ikkinchidan, 2025-2026-yillarda respublikamizning barcha tuman va shaharlarida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish ishlari amalga oshiriladi. Shu o‘rinda qayd etish joiz, butun tadbirni o‘tkazish uchun 800 milliard so‘m (taxminan 63,4 million dollar) mablag‘ talab etiladi. Aholisi O‘zbekiston bilan deyarli bir xil bo‘lgan Kanadada aholini ro‘yxatga olish 650 million dollarga (aholi jon boshiga 47,53 dollar) baholangan bo‘lsa, Polshada 98 million dollar byudjet mablag‘lari ko‘zda tutilgan. Uchinchidan, 2026-2027-yillarda aholini ro‘yxatga olish natijalari tayyorlanadi va rasman e’lon qilinadi.

2023-yil boshida 3-6 yosh oralig‘ida bo‘lgan bolalar soni 2 million 925,2 ming nafar bo‘lsa, 2035-yilga borib, 3 million 738,3 mingga yetishi kutilmoqda. O‘tgan yil boshida respublikada 29 ming 420 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 2,1 million nafarni tashkil etgan (qamrab olish darajasi 71,8 foiz).

KUNIGA O‘RTACHA 2,1 MING KISHIGA KO‘PAYAYOTGAN XALQMIZ

Ma’lumotlarga qaraganda, aholini hisobga olish ishlari eramizdan oldingi 3 minginchi yillarda Osiyo va Afrikada, Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Yaponiyada o‘tkazilgan. Qadimgi Gretsiya va Rimda ham shunday tadbirlar o‘tkazilgani haqida bitiklar bor. Bunda asosiy maqsad soliq yig‘ish, boj olish hamda harbiy safarbarlik uchun odamlar sonini aniqlashga qaratilgan. Shuning uchun ro‘yxatga olishda erkaklar ko‘proq e’tibor markazida bo‘lgan.

Aholini rasmiy ro‘yxatga olishning hozirgi shaklida dastavval 1790-yilda AQSHda, oradan o‘ttiz yil o‘tib, Italiya, Ispaniya, Angliya, Irlandiya, Avstriya, Fransiya, 1851-yilga kelib esa Xitoyda amalga oshirilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin tizim yanada takomillashtirilib, 1945-1954-yillarda 151 ta, 1965-1974-yillarda 179 ta mamlakatda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, hozir dunyoning deyarli barcha davlatida aholi ro‘yxatdan o‘tkazib kelinadi. Bu masalalar bilan bevosita BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi shug‘ullanadi.

BMT tomonidan aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish bo‘yicha har o‘n yillikda raund e’lon qilinadi va unda a’zo davlatlarga o‘z hududlarida har o‘n yilda kamida bir marta mazkur tadbirni o‘tkazish tavsiya etiladi. Xususan, 2015-yilning 10-iyun sanasidagi rezolyutsiyada ham a’zo davlatlarga shunday tadbirni yo‘lga qo‘yish taklif qilingan.

Xalqaro amaliyotga doir bu tadbir yurtimizda ilk bor 1897-yilda o‘tkazilgan. Shundan so‘ng 1926, 1939, 1959, 1970, 1980, 1989-yillarda o‘tkazilib, eng oxirgisida respublikamizda 19,7 million aholi yashayotgani qayd etilgan.

Oxirgi yuz yildan ortiq vaqt mobaynida o‘lkamizda doimiy aholi sonining o‘sishi bilan bog‘liq ma’lumotlar ko‘pchilikka qiziq.

1920-yilda yurtimiz nufusi 4,4 million bo‘lsa, demakki, undan keyingi bir asr mobaynida aholi soni qariyb 8 barobar o‘sgan. Shu bois, O‘zbekiston jahonda aholi soni jadal o‘sib borayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. 2022-yil boshiga kelganda aholi soni 35,3 million kishiga yetdi. Bu 2021-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 712 ming kishiga ko‘payganini ko‘rsatadi. 2023-yil boshida esa bu ko‘rsatkich 36 million 24 ming 946 kishini tashkil etgan. Yil oxiriga kelib, doimiy aholimiz soni o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,2 foiz oshgan va har kuni o‘rtacha 2,1 ming kishiga ko‘paygan.

Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga borib, mamlakatimiz aholisi 41 milliondan oshadi. Bunda 18 yoshgacha bo‘lganlar va mehnatga layoqat yoshidan kattalar soni mos ravishda 2 million 384 ming va 1 million 447 ming kishiga o‘sishi kutilmoqda.

BU TADBIR QANDAY MAQSADLARGA XIZMAT QILADI?

Eng avvalo, yuqorida qayd etilganidek, ro‘yxatga olish mamlakat aholisining aniq sonini, tarkibi va yashash sharoiti haqidagi ma’lumotlarni bilish imkonini beradi. Asosiysi, bu natijalarni umumlashgan, ya’ni shaxssizlantirilgan ko‘rinishda turli jadvallarda aks ettirish va ulardan nafaqat butun mamlakat, balki aholining turli toifalari hamda hududlar bo‘yicha ham tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Bunda aholi soni, oilaviy ahvoli, ma’lumoti, kasbi, uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi, mehnat resurslari, bandligi va ishsizligi, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi sohalar bo‘yicha batafsil ma’lumot to‘planadi. Ushbu ma’lumotlar aholining istiqboldagi hisob-kitoblari va yaqin yillarda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tomonidan sog‘liqni saqlash hamda maktab ta’limi sohasidagi o‘tgan yilgi holat va istiqbol imkoniyatlari haqida o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, 2022-yil boshida respublikada 1281 ta shifoxona mavjud bo‘lib, har 10 ming kishiga 46,9 ta shifoxona o‘rni to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, bir smenada 683 ming kishini qabul qiladigan 6676 ta ambulatoriya-poliklinika faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu muassasalarda 95,6 ming tibbiyot xodimi ishlagan, ya’ni har 10 ming kishiga 27,1 nafar tibbiyot xodimi yoki bir shifokorga 369 bemor to‘g‘ri kelgan.

2035-yilga borib, fuqarolar salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida ambulatoriya-poliklinikalar sonini 8450 taga yetkazish zarur (bitta ambulatoriya-poliklinika 18 ming 500 kishiga mo‘ljallangan).

Prognozlarga ko‘ra, respublika aholisi yiliga o‘rta hisobda 711 ming kishiga ko‘payadi. O‘sish shunday yuz bergan taqdirda ham shifokorlar va hamshiralar zimmasiga tushadigan yuklama ortib ketmasligi kutilmoqda. 2035-yilga borib, shifokorlar bilan ta’minlanish darajasi 10 ming kishiga 28,4 nafarni, hamshiralar bilan ta’minlanish darajasi esa 116,8 nafarni tashkil etadi.

2023-yil boshida 3-6 yosh oralig‘ida bo‘lgan bolalar soni 2 million 925,2 ming nafar bo‘lsa, 2035-yilga borib, 3 million 738,3 mingga yetishi kutilmoqda. O‘tgan yil boshida respublikada 29 ming 420 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 2,1 million nafarni tashkil etgan (qamrab olish darajasi 71,8 foiz).

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish bo‘yicha mavjud ko‘rsatkichlarni saqlab qolish, shuningdek, kelajakda dunyoning rivojlangan mamlakatlari (90 foizga yaqin) darajasiga erishish uchun respublikaning barcha hududlarida 1 million 264 ming bolaga mo‘ljallangan yangi o‘rinlar barpo etish zarur. Barchani qamrab olish uchun byudjetdan qo‘shimcha 37 trillion so‘m ajratish taqozo etiladi.

2022/2023-o‘quv yilida jami o‘quvchilar soni 6 million 461,7 ming, o‘qituvchilar soni esa 540,7 ming nafarni (o‘rindoshlardan tashqari) tashkil etdi, ya’ni har bir o‘qituvchiga 11,9 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keldi.

Mazkur o‘quv yilida umumta’lim maktablarini jami 430 ming o‘quvchi tamomladi. Ayni chog‘da 701,9 ming bola 1-sinfga qadam qo‘ydi. 2035-yilga borib, 7-17 yosh oralig‘idagi bolalar soni 9 million 737,4 mingga yetishi kutilmoqda. Bu esa 2035/2036-o‘quv yiliga qadar qo‘shimcha 3 million o‘quvchi o‘rni yaratilishini talab etadi.

Har yili oliy ta’lim muassasalari mehnat bozoriga o‘rtacha 30 ming nafar oliy ma’lumotli o‘qituvchi chiqaradi. 2035-yilga borib, oliy ta’lim muassasalariga qabul darajasini 55 foizga yetkazish va xotin-qizlar uchun ajratiladigan kvotalarni oshirish natijasida oliy ta’lim muassasalari har yili o‘rtacha 40 ming pedagog kadrni tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, o‘qituvchilar soni 970 mingni tashkil etadi. Natijada har bir o‘qituvchiga 10 o‘quvchi to‘g‘ri keladi.

Ushbu hisob-kitoblarga asoslanib aytish mumkinki, yaqin kelajakda o‘qituvchilarga talab yuqori bo‘ladi. Shunga qaramay, ularning yetishmasligi kuzatilmaydi, ayrim katta shaharlar bundan mustasno sanaladi.

— Aholini ro‘yxatga olish jarayonida yig‘iladigan ma’lumotlar, o‘z navbatida, respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash, oilalarga yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, ta’lim bo‘yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi, — deydi Qobil Berdiqulov. — Ayni chog‘da ular aholi punktlari infratuzilmasini yaxshilash, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo‘yicha qisqa, o‘rta va uzoq muddatli prognozlar, dasturlarni ishlab chiqishda ham nihoyatda qo‘l keladi. Masalan, odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ish topish yoki boshqa maqsadlarda ko‘chib yurishi, bandligi va kasbi to‘g‘risidagi ma’lumotlar butun mamlakat yoki uning muayyan hududida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni rejalashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, aholini ro‘yxatga olish natijalari aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning taqsimlanishini hisoblashda ishlatiladi, migratsiya holatini, mehnat resurslari taqsimotini aniq ko‘rsatib beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan, 2021-yilda Andijon viloyatining Xo‘jaobod, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, Toshkent shahrining Yashnobod tumanlari hamda Xorazm viloyatining Xiva shahrida sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olish tadbiri o‘tkazildi.

Ushbu jarayonga 1885 xodim shartnoma asosida jalb qilindi. Sinov jarayonlari uch xil usulda, ya’ni internet orqali respondentlar tomonidan savolnomalarni mustaqil ravishda to‘ldirish, qog‘oz va planshet usullarida ro‘yxatga oluvchi xodimlarning ular bilan yuzma-yuz so‘rov jarayoni orqali o‘tkazildi. Planshet usulida aholini ro‘yxatga olish qog‘oz usuliga nisbatan qulay, tezkor va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekani ko‘rindi.

O‘n ikki kun davomida o‘tkazilgan jarayonlarda qog‘oz usulida bir nafar ro‘yxatga oluvchi 350 dan 400 nafargacha shaxsni ro‘yxatga olgan bo‘lsa, planshet shaklida 500 dan 750 nafargacha to‘g‘ri keldi.

Sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olish jarayonlarida ishtirok etish uchun 11 kishidan iborat xalqaro kuzatuv missiyasi mamlakatimizga tashrif buyurib, to‘rtta hududda bu borada ko‘rilgan tayyorgarlik va uni o‘tkazish ishlari bilan bevosita tanishdi. Missiya vakillari bu jarayonni ijobiy baholab, uni yanada sifatli va zamonaviy usullardan foydalangan holda o‘tkazish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar berdi.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda 2025-2026-yillarda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olish jarayonlarini internet tarmog‘i orqali hamda planshet qurilmalaridan keng foydalangan holda o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

BMT tomonidan aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish bo‘yicha har o‘n yillikda raund e’lon qilinadi va unda a’zo davlatlarga o‘z hududlarida har o‘n yilda kamida bir marta mazkur tadbirni o‘tkazish tavsiya etiladi. Xususan, 2015-yilning 10-iyun sanasidagi rezolyutsiyada ham a’zo davlatlarga shunday tadbirni yo‘lga qo‘yish taklif qilingan.

TAYYORGARLIK KO‘RISH ISHLARI VA SINOV NATIJALARI

Respublikamizda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish ishlari bundan besh yil oldin boshlangan. Prezidentimizning 2019-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, bu jarayonni 2022-yilda o‘tkazish belgilangan edi. 2020-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi sababli tadbirni o‘tkazish 2023-yilga ko‘chirildi. Keyinchalik bu muddat ham ayrim sabablarga ko‘ra ortga surildi.

Lekin aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik to‘xtab qolgani yo‘q, aksincha, belgilangan tartibda davom ettirib kelinmoqda. O‘tgan davr mobaynida aholini ro‘yxatga olishning maxsus veb-sayti (aholi.stat.uz) amaliyotga joriy qilindi. O‘tkazilgan ochiq tanlov asosida aholini ro‘yxatga olish tadbirining logotipi va shiori (“Yangi O‘zbekistonning bir qismi bo‘l!”) tayyorlandi.

BMT Aholishunoslik jamg‘armasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda bu sohadagi ilg‘or davlatlarning tajribalari asosida aholini ro‘yxatga olishning normativ-huquqiy va uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Jumladan, “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi tayyorlanib, 2020-yil 16-mart kuni qabul qilindi.

Aholini ro‘yxatga olishning birlamchi ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarini shakllantirish imkonini beruvchi “Aholini ro‘yxatga olish” axborot tizimi amaliyotga joriy qilindi. Endi u yanada takomillashtiriladi.

Shuningdek, 2022-yil avgust oyida barcha mahallalarning xaritalari joyidagi holatga mosligi o‘rganilib, aholi yashayotgan turar hamda noturar joy ro‘yxati tuzib chiqildi. Mazkur tadbirga respublika bo‘yicha jami 6148 shaxs uy-joylar ro‘yxatini tuzuvchi xodim (registrator) sifatida shartnoma asosida ishga jalb etildi.

O‘rganishlar natijasida hududlarda jami 1,1 millionga yaqin xonadon raqamlanmagani, 3 mingdan ortiq xonadon raqami mahalla xaritalaridagiga mos kelmagani, 181 mingdan ortiq yangi qurilgan bino va uy mahalla xaritalariga kiritilmagani, buzilgan 30 mingga yaqin bino va xonadon xaritadan chiqarilmagani va 24 mingdan ziyod ko‘cha nomi o‘zgargan bo‘lsa-da, xaritada o‘zgartirilmagani aniqlandi.

Mazkur kamchiliklar umumlashtirilib, kadastr organlariga taqdim etildi va ular tomonidan hududiy statistika organlari bilan birgalikda kamchiliklar bartaraf etilib, 9 mingdan ortiq mahalla xaritalari to‘liq yangilandi.

Oldinda qilinadigan ishlar hali ko‘p. Negaki, aholini ro‘yxatga olish orqali yurtimizning har bir manzili, eng chekka va olis mahallayu ko‘chalarigacha doir barcha ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan yagona axborot bazasi yaratiladi.

Bu qimmatli ma’lumotlardan keyingi o‘n yillikka mo‘ljallangan, oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni shakllantirish, shifoxonalar, bolalar bog‘chalari, maktablar va uy-joy qurilishini, energetika, transport infratuzilmasi, tadbirkorlik subyektlari, xizmat ko‘rsatish obyektlarini rejalashtirish kabi yo‘nalishlarda keng foydalaniladi.

Ro‘yxatga olish natijalari nafaqat biz, balki kelajak avlod uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugun biz qanday yashaganimiz va qanday imkoniyatlarga ega bo‘lganimiz tarixga muhrlanib, avlodlarga ijtimoiy meros bo‘lib qoladi.

Ta’lim

MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADIGAN KELAJAK

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Oltinsoy tumanida istiqomat qiluvchi Azamat Almardonov har kuni erta tongdan maktabga — sevimli ishiga shoshadi. Maktabga kiraverishdagi yozuvlarni har doim ba’zan pichirlab, ba’zan baland ovozda o‘qiydi: “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi”.

“Ikkita til va bitta kasb” tamoyili asosida ushbu maktabda ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Azamat Almardonov 7-sinf o‘quvchilariga ikkinchi chet tili sifatida nemis tilidan dars beradi. Ilgari bu yerda faqat bitta xorijiy til o‘qitilishi sababli mutaxassisligi bo‘yicha dars soatlari yo‘q edi. Uzoq masofaga qatnab, boshqa maktablarda ishlardi. Endi esa o‘zining mahallasida ishlash imkoniyati yaratildi.

Xuddi shunday, yurtimizda o‘qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitini yaxshilash, ta’lim sifatini oshirish choralari barcha joyda, xususan, eng chekka tumanlardan bo‘lmish Oltinsoyda ham ko‘rilyapti.

Oltinsoy tumanidagi 65-umumta’lim maktabida 10-sinf o‘quvchilariga tikuvchilik kasbini o‘rgatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Darhaqiqat, insonning kasb-kori, hunari bo‘lsa, uyda o‘tirib ham o‘zini band qilishi, ro‘zg‘origa naf keltirishi mumkin. Bu bilan jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu jihatlar hisobga olingan holda ta’lim maskanida qiz bolalarga tikuvchilik sir-sinoatlari puxta o‘rgatilmoqda.

— Hunari bor xor bo‘lmaydi, — deydi ushbu maktab o‘qituvchisi Mohira Saidova. — Tabiiyki, maktabni bitirayotgan o‘quvchilarning hammasi ham oliy ta’limda o‘qishni davom ettira olmaydi, ro‘zg‘or tashvishlari uchun biror kasb yo hunarning boshini tutishga intiladi. Bu esa ma’lum bir vaqt talab etishi tabiiy. Ana shu jihatlarga alohida e’tibor qaratilib, o‘quvchilarning maktab davridayoq aniq bir hunarni puxta o‘zlashtirishi uchun sharoit yaratildi. Bu, ayniqsa, qizlar uchun juda qulay bo‘ldi.

Oltinsoy tumanida mavjud 69 ta umumta’lim maktabida joylashuv va ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, 64 xil ishchi kasb bo‘yicha maxsus o‘quv xonalari tashkil etilib, kurslar olib borilmoqda. Bundan tashqari, professional ta’lim muassasalari va monomarkazlar bilan hamkorlikda 10 turdagi kasbni to‘garak mashg‘uloti shaklida o‘rgatish ham yo‘lga qo‘yilgan.

Yurtimizda keyingi yillarda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ikkita xorijiy til va kasb o‘rgatish tizimi keng joriy etilmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida ham o‘quvchilarga 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb o‘rgatiladigan 14 ta maktab tanlanib, belgilangan talab asosida zamonaviy jihozlandi. Bu yil esa viloyatdagi yana 33 ta umumta’lim maktabida shunday tizim joriy etilishi belgilangan.

— Surxondaryoda hozirgi paytda maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 960 ta maktab, 17 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati, 16 ta “Barkamol avlod” markazi, 456 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud. Shu kunlarda Termiz shahri va tumanlardan maktablar tanlab olinib, o‘quvchilarga xorijiy tillar va kasb-hunar o‘rgatilmoqda. Mazkur tanlangan maktablarda kasb-hunar ustaxonalari tashkil etildi va jihozlar, zarur ashyolar bilan ta’minlandi, — deydi Surxondaryo viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Bekzod Toshpo‘latov.

Maktab o‘quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish yo‘lga qo‘yilishi hamda 11-sinfning “Hayot maktabi” etib belgilanishi kelajak avlod egalarining kamolotida, kasb va til o‘rganib, hayotda o‘z o‘rnini topishida muhim o‘rin tutadi.

— Bugun ta’lim tizimiga har qachongidan-da katta e’tibor qaratilmoqda. Avval maktabni bitirgan o‘quvchi o‘rta-maxsus yoki oliy ma’lumot olish uchun o‘qishni davom ettirishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, ayni paytda oliy ta’limni davom ettirishidan qat’i nazar, dars bilan birga chet tillari hamda o‘quvchining qiziqishiga qarab, biror kasb-hunar o‘rgatilishi yo‘lga qo‘yilmoqda, — deydi Surxondaryo viloyat pedagogika markazi mutaxassisi Rohila Mamatqulova. — “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 100 ta ustuvor maqsadi qatoridan joy olgan uchinchi maqsad umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ta’lim tashkilotlariga har yili 500 nafar “til egalari” bo‘lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish hamda barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslarini joriy etish belgilab olingan. Bu esa o‘quvchilarning kelajakda o‘z ishini boshlashi, hayotga mustaqil qadam tashlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab — inson hayotida o‘ziga xos o‘rin egallovchi, uning kamol topishida poydevor bo‘lib xizmat qiluvchi ziyo maskani. Bilimlar poydevorini esa ayni shu davrda mustahkam qurish lozim. Mamlakatdagi har bir bolaga sifatli ta’lim-tarbiya berish, qo‘llab-quvvatlash, iqtidor va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga yetarli sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekani yo‘lga qo‘yilayotgan xalqchil tamoyillar vositasida yana bir bor o‘z ifodasini topmoqda.

Mulohaza

BU ARZIMAYDIGAN NARSA EMAS

Farzandini yomon ko‘zlardan asrab, sog‘lom, bilimdon va hunarli qilib tarbiyalash barcha zamonlarda har bir oila, har bir ota-onaning burchi, asosiy vazifasi bo‘lib kelgan. Hozirgi tahlikali zamonda bu masala dolzarbligi kun sayin emas, soat sayin ortib boryapti. Zero, ko‘plab g‘arazli maqsadli ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga ta’sirini o‘tkazishga urinmoqda. Eng achinarlisi, ular maqsadlariga erishyapti ham.



MUAMMONING ILDIZINI O‘ZIMIZDAN QIDIRAYLIK

Maktabga o‘quvchi daftar-kitobsiz kelishi mumkin, lekin qo‘lida, albatta, telefon bo‘ladi. Shuning o‘zidanoq ayrim o‘quvchilar uchun maktabga kelish, ta’lim olish shunchaki xo‘jako‘rsinga ekanini bilish qiyin emas.

Xo‘sh, bundan oilada ota-ona, maktabda rahbariyat, o‘qituvchilar bexabarmi? Yo‘q, albatta! Buni ko‘rib-bilib turgan ota-ona farzandining o‘qishga borayotganidan, maktab jamoasi esa o‘quvchining darsga kelayotganidan xursand.

Buni arzimaydigan holat deb bo‘lmaydi. Ayni damda ta’limni bugungi talablar darajasida tashkil etish asosiy masala ekan, eng avvalo, tartib-intizomni yo‘lga qo‘yish shart. U ta’limdagi barcha muvaffaqiyatlarimizning garovigina emas, ilhomchisi ham. Tartib-intizom bo‘lmas ekan, inson ma’naviyat va ma’rifatdan yiroqlashib boraveradi. Ma’naviyatsiz inson esa...

Bugun o‘quvchining darsga daftar-kitob, qalam-ruchka va boshqa o‘quv qurollari bilan kelishini, shu bilan birga, qo‘l telefonini maxsus shkafga qo‘yishini, iloji bo‘lsa, maktabga telefonsiz borishini shart qilib qo‘yish vaqti yetdi. Busiz o‘quvchilarimizni tartib-intizomli, mas’uliyatni chuqur his etadigan, maktabni o‘z uyidek, o‘qituvchilarni ota-onasidek ko‘rib, izzat-hurmatini o‘rniga qo‘yadigan, qadrlaydigan qilib tarbiyalashimiz oson kechmaydi. Ota-ona bu muammo maktabning ishi, maktab esa bu ota-onaning vazifasi, deyishi, mahalla qo‘l qovushtirib turishi bilan ish bitmaydi.

Davlatimiz rahbari ta’lim-tarbiya ishida oila, maktab va mahalla yelkama-yelka turib ishlashi lozimligini qat’iy qilib qo‘ygani bejiz emas. Chunki bu uchlik o‘z faollari bilan har qanday masalani, har qanday muammoni yechishga qodir. Lekin bu qator omillar bilan bog‘liqligini ham unutmasligimiz kerak.

Avvalo, oila ham, maktab ham, mahalla ham shu paytgacha davom etib kelgan loqaydlikdan qutulishi lozim. Hozir dars paytida tartibbuzarlik qilgani yoki berilgan savolga javob berolmagani uchun o‘qituvchi o‘quvchiga dashnom berguday bo‘lsa, baloga qoladi. O‘quvchining ota-onasi vajohat bilan kelib, o‘qituvchining yoqasiga yopishadi. Buni internet tarmoqlarida ko‘p bor kuzatyapmiz. Hatto o‘qituvchini sudga berish hollari ham uchrayapti. Shu bois, o‘qituvchi “Sen menga tegma, men senga tegmayman” yo‘liga o‘tishga majbur bo‘ldi. Oqibatda o‘quvchi nazoratsiz qoldi. Xohlasa maktabga boradi, xohlamasa yo‘q, xohlasa dars tayyorlaydi, xohlamasa kitobni ochib ko‘rmaydi ham.

Nazarimda, endi bunday holatga uzil-kesil nuqta qo‘yish uchun ota-bobolarimizning “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan purhikmat maqoliga amal qilib, bir yoqadan bosh chiqarish vaqti keldi. O‘qish davomida o‘qituvchi o‘quvchining ota-onasi hisoblanadi. U o‘z o‘quvchisini tartibga chaqirishga, tanbeh berishga haqli. Buni ota-ona to‘g‘ri tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Maktab cho‘lda emas, mahalla hududida joylashgan. Mahallada esa yettilik ishlayapti. U huquq va imkoniyatga ega bo‘lgan juda katta kuch. Endi ular ham birovning murojaat bilan kelishini kutib o‘tirmay, kabinetdan chiqib ishlashi lozim. Chunki hanuzgacha to‘rt-besh o‘quvchining darsga kirmay, ko‘zdan xoliroq joyda papiros tutatgancha valaqlashib o‘tirganini ko‘rib turibmiz. Ehtimol, bundan maktab ham, ota-onalar ham bexabardir. Lekin mahalla xabardor. Nazarimda, Milliy gvardiyaning maktabdagi davomatni nazoratga olgani ko‘pchilikning ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Qisqa muddatda maktablarda davomatning 98 foizga ko‘tarilgani juda quvonchli hol. Ishonchim komilki, ota-ona, maktab, mahalla, Milliy gvardiya birgalikda ishlashni yo‘lga qo‘ysa, ta’lim va tarbiyada, albatta, ijobiy o‘zgarish bo‘ladi.

> O‘qituvchi “Sen menga tegma, men senga tegmayman” yo‘liga o‘tishga majbur bo‘ldi. Oqibatda o‘quvchi nazoratsiz qoldi. Xohlasa maktabga boradi, xohlamasa yo‘q, xohlasa dars tayyorlaydi, xohlamasa kitobni ochib ko‘rmaydi ham.

OSMONDAGI BOLALAR

O‘tgan yili uyimiz ro‘parasidagi institut darvozasi oldida besh-olti talaba tanaffusda papiros tutatadigan bo‘ldi. Keyin o‘n besh-yigirma nafarga yetdi. Ular institut ma’muriyatidan dakki eshitdi, shekilli, chekkaroqqa o‘tib chekadigan bo‘ldi. Keyin-keyin yana avvalgi joylariga qaytdi. Hozir ular soni ellik-oltmishga yaqinlashib qoldi. Ertaga yuz-ikki yuzga yetmasligiga kim kafolat beradi? Ular kabi darsga kirmay, pana-pana joyda to‘rt-beshta bo‘lib chekish bilan shug‘ullanayotgan o‘quvchilar bugun bu zararli yo‘ldan qaytarilmas ekan, ertaga kech bo‘ladi. Bugun bemalol chekayotgan bola ertaga bemalol spirtli ichimlik ichadi. Chunki nazoratsizlik, xohlaysizmi-yo‘qmi, salbiy holatlarga, jinoyatga olib boradi. Bu ko‘p bora isbotlangan.

Rivojlangan davlatlarning ayrimlaridagi vazirlik va idoralarning rahbarlari ishga jamoat transportida borib-kelishini eshitganmiz, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rganmiz. Bizda esa boshqacharoq. Poytaxtdagi ayrim maktablar darvozasi oldi ertalab falon markali xizmat mashinalari bilan tirband bo‘ladi. Ularning orqa o‘rindig‘idan birin-ketin tushgan yigit-qizlar “Qanaqa mashinada yurishimni ko‘rib qo‘yinglar”, deganday g‘o‘daygancha atrofga nigoh tashlab, ichkariga yo‘l oladi. Darsdan so‘ng ularni yana o‘sha xizmat mashinalari olib ketadi.

Buning nimasi yomon, deysizmi? Yomonligi shundaki, o‘zlarini osmonda ko‘radigan bunday o‘quvchilarning ko‘pchiligi uncha-muncha odamni mensimaydi. O‘quvchilar u yoqda tursin, o‘qituvchilarga ham panja orasidan qaraydi. Ular o‘zlariga o‘xshagan kiyimi qimmatbaho bo‘lgan, kissasida puli bor “man-man”chilar bilan birga o‘tirib, birga turadi. Ba’zi bir o‘qituvchilarimiz esa “och qornim, tinch qulog‘im”ni ma’qul ko‘rib, o‘qishi haminqadar bo‘lgan ana shunday o‘quvchilarning nojo‘ya xatti-harakatlaridan ko‘z yumishni afzal ko‘radi. Kerak bo‘lsa, so‘ragan bahosini ham qo‘yib beradi.

Xo‘sh, endi ayting-chi, o‘zini o‘zgalardan yuqori qo‘yadigan bunday boyvachcha erkatoylar bunaqa iltifotdan keyin intizomli bo‘lib, yaxshi o‘qishga intiladimi? Yo‘q, albatta. Demoqchimanki, buni, avvalo, o‘sha ota-onalar tushunib yetishi, oldini olish choralarini ko‘rishi kerak. Bu ishga ota-ona bosh qo‘shmasa, maktab ularni eplashi qiyin kechadi.

ERTAKNING ERTASI BOR

Biz bobo va buvimiz, ota va onamizdan xalq ertaklarini tinglab ulg‘aygan avlodmiz. Do‘stlik, mehr-oqibat, qadr-qimmat, halollik, adolat, elparvarligu yurtparvarlik, mehnatsevarligu bunyodkorlik, ahilligu birdamlik, matonatu jasorat tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan ertaklarni jonu dilimiz bilan eshitar, ularning tugab qolmasligini juda-juda xohlar edik.

Ertak nihoyasiga yetgach, bobomiz yo buvimizga yalinib-yolvorib, ikkinchisini, keyin uchinchisini aytib berishini so‘rardik. Oilamiz kattalari ertakni biz — bolalarni xursand qilish uchungina emas, balki o‘sha ertak ichiga olib kirib, voqealarni diqqat bilan kuzatib, yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani ajratishimizni, ijobiy qahramonlarga havas qilishimizni, ulardek bo‘lish uchun yaxshi o‘qishimiz kerakligini qayta-qayta takrorlar edi.

Maktabga qatnay boshlaganimizdan so‘ng ertak kitoblar doimiy hamrohimiz bo‘lgan. Yodimda, bobom yoki buvim, otam yoki onam har oqshom yoniga o‘tqizib, ertak o‘qib berishimni so‘rar edi. Men ertakni ovoz chiqarib o‘qir, tinglovchim xatolarimni tuzatib borar, keyin mazmunini gapirib berardim. Shundan so‘ng ertak qahramonlarining yaxshi-yomon xislat va fazilatlari haqida savol-javob boshlanardi.

Bora-bora savol-javobimiz bahsga aylanardi. Bu meni bahsda dovdirab qolmaslik uchun o‘qiganimni takror o‘qishga, qahramonlar niyatini anglab olishga, ularning xatti-harakatiga munosabatimni bildirishga o‘rgatdi. Shu tariqa kitob o‘qishga qiziqishim kundan kun ortib, badiiy adabiyotga, jurnalistikaga kirib keldim.

Oradan yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Endi o‘zim bobo bo‘lib, nabiralarimga ertak so‘zlayapman. Bu ertaklarning ko‘pchiligi bolaligimda bobom, buvim, ota-onamdan eshitganlarim. Har gal ulardan birini aytishga og‘iz ochganimda ertakchi jigarlarim ko‘z oldimda namoyon bo‘lib, quloqlarim ostida ovozlari eshitilayotganday tuyuladi. Ko‘nglim bo‘shashib, ko‘zlarimga yosh qalqib keladi.

— Bobojon, ertak aytib bering, — deydi ko‘zlarimga mo‘ltillab qarab turgan nabiram. — Men uni ertaga bog‘cha opamga aytib beraman.

Men chuqur xo‘rsingancha ertak ayta boshlayman...

Yaqinda sartaroshxonaga kirdim. Uch-to‘rt yoshli bolakay otasining qo‘l telefonini so‘rab, yer tepinib yig‘lar, soch oldirayotgan o‘ttiz yoshlar atrofidagi yigit o‘g‘lini yaxshi gap bilan ovuntirolmay, jerkib tashladi. Bolakay esa yanayam avjiga chiqdi. Toqati toq bo‘lgan ota ilgakda osig‘liq turgan kostyumining yon cho‘ntagidan qo‘l telefonini olib, o‘g‘liga uzatdi. Yig‘idan taqqa to‘xtagan bolakay yengi bilan ko‘z yoshini artgancha u yoq-bu yoqqa alanglab, yonimdagi bo‘sh stulga o‘tirib, xursand bo‘lgancha nimalarnidir ko‘ra boshladi. Men ertak eshitish o‘rniga jangari kinolar ichida ulg‘ayayotgan bolakayga, undan ham ko‘proq uning otasi bilan onasiga achindim.

Afsuski, hozirgi ota-onalarning ko‘pchiligi bog‘cha va maktabga boradigan bolasini ertak eshitishga, ertak o‘qishga qiziqtirish o‘rniga ongini ur-yiqitu o‘ldir-o‘ldir kinolar bilan zaharlamoqda. Chaqaloqlarni qo‘l telefonidagi vahimali qo‘shiqlar bilan allalamoqda. Bu ketishda bora-bora ertak nimaligiyu alla nimaligini butunlay unutib qo‘ymaymizmi?!

Endi o‘ylab ko‘ring, bolasini ovutish uchun qo‘liga telefon berib qo‘yayotgan, bo‘sh vaqti bo‘ldi deguncha bolasining oldida telefon titish bilan band bo‘layotgan, xizmat mashinasini o‘g‘il-qiziga berib qo‘yib taltaytirayotgan, shu bilan uni xudbinlikka o‘rgatayotgan ota-onalar, kattalar farzandiga namuna bo‘la oladimi?

Shunday oilada katta bo‘lgan, umrida ertak eshitmagan bola kitob o‘qiydimi, maktabga boradimi, o‘qituvchisini, ustozini hurmat qiladimi? Maktabdagi muammolar ildizini shundan, ya’ni ota-onalardan, kattalardan qidirishimiz kerak, nazarimda. Zero, oilada ota-ona barcha zamonlarda farzand uchun namuna bo‘lib kelgan, bolalar ularga qarab, uyda, ko‘chada, jamoat joylarida o‘zini tutishni, kattalarga muomalani o‘rgangan...

Nuriddin OCHILOV,
jurnalist

Ma’naviyat ko‘zgusi bo‘lgan ona tiliga munosabat shaxsning ma’naviyatga munosabatini ham belgilaydi. Kamol topayotgan yosh avlodga ona tiliga e’tibor va ehtirom, unga davlat tili sifatida qarashning mas’uliyati kabi tuyg‘ularni singdirish va mustahkamlab borish dolzarb masaladir.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 29-mart, 63-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Milliy g‘urur

BAXTNING SURATI

Dunyo dunyo bo‘libdiki, ne-ne zamonlar, ne-ne xoqonlar jami muqaddas tushunchalar, tuyg‘ular ichida Vatan deya atalmish manzildan buyukrog‘i-suyukrog‘ini topmadilar. Vatan tomirlarimda oqayotgan qonchalik qaynoq, ko‘ksimda urib turgan yurakchalik aziz. Qardosh ozar shoiri Akif Bag‘irning “O‘zbek kelayotir” she’ri jarang sochganida, qalblar yanada farahga to‘ladi:

Chiqarib nurafshon yo‘lga karvonin,
Boshiga ko‘tarib tengsiz sarbonin,
Kuch olib istiqlol zafarlaridan,
Yana yulduzlarga taqab narvonin,
O‘zbek kelayotir tarix qa’ridan!

Yo‘l bo‘shat, dillarda muzlagan armon!
Yo‘l bo‘shat, mensimay xor qilgan nodon!
Yana ming yillikning tongotaridan,
Yo‘l bo‘shat, zamona! Yo‘l bo‘shat, jahon! —
O‘zbek kelayotir tarix qa’ridan!

Zilola XO‘JANIYOZOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira

Shu o‘rinda, katta ustozlarimizdan eshitganim bir voqea yodimga tushadi. Mustaqillikning ilk yillarida davlat arbobi, professor olim Erkin Yusupov O‘zbekiston BMTning ta’lim, madaniyat va fan masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti bo‘lgan UNESCOga a’zo bo‘lgandan so‘ng delegatsiya tarkibida ilk bor tashkilot qarorgohi joylashgan Parij shahriga boradi. Xalqaro tadbir boshlanish arafasida UNESCO bosh direktori Federiko Mayor yig‘ilganlarga murojaat etadi: “Xonimlar va janoblar! Men sizlardan uzr so‘ragan holda, bugun diplomatik qonun-qoidalarni bir oz buzmoqchiman. Bugungi yig‘ilishimizda tashkilotimizning yangi a’zosi bo‘lgan mamlakat vakillari ishtirok etmoqda. Men ularni sakkizinchi qatordan birinchi qatorga o‘tib o‘tirishlarini so‘rayman”. Shunda mas’ullar kelib, O‘zbekiston vakillarini birinchi qatorga o‘tkazadi. Hamma hayron. Aslida, bu holat xalqaro diplomatik etiket qoidalariga zid hisoblanardi. Shunda Mayor yana so‘zida davom etadi: “Xonimlar va janoblar, men shu ishni qilmay, yig‘ilishni boshlay olmas edim. Chunki bu yangi vakillarimiz O‘zbekistondan kelgan. Nima uchun ularni birinchi qatorga o‘tkazganimni so‘rasangiz, aytaman. Chunki bu yurt dunyo tamadduniga, ilm-fan taraqqiyoti, ma’naviyat kamolotiga behisob hissa qo‘shgan buyuk tarixiy shaxslar vatanidir. Biz bilamizki, dunyo tamadduniga eng ko‘p hissa qo‘shgan olimu fozillar saralanib, eng buyuk xizmat qilgan 200 nafari tan olinadi. Ularni ham saralab, munosiblar ichra munosib sakkizta buyuk daho tan olingan. Mana shu sakkiz dahoning oltitasi O‘zbekiston hududida tug‘ilib, yashab, ilm-fan rivojiga buyuk hissalarini qo‘shgan. Bu vakillarimiz esa ana shu daho ajdodlarning avlodlaridir!”. Shunda butun zal oyoqqa turib, yurtimiz vakillarini bardavom olqishlaydi.

“Shu damda ko‘zlarimdan tinimsiz yosh oqardi, — deya xotirlaydi Erkin Yusupov. — Ba’zilar bizni kichik millat atab, tan olmay turgan o‘sha davrda bu tarixiy haqiqatni biladiganlar, tan oladiganlar, e’tirof va ehtirom etguvchilar borligidan faxr va g‘urur his etayotgandim”.

* * *

Esimdan chiqmaydi, o‘shanda o‘g‘lim bog‘cha yoshida edi. Bog‘cha opalari bolalarga vatan bayrog‘i haqida gapirib, suratini chizishni o‘rgatibdi. O‘sha kuni o‘g‘lim o‘zi yasagan bayroqchani uyga xursand bo‘lib ko‘tarib keldi. Keyin uni yeru ko‘kka ishonmay, hammaga maqtanib chiqdi. Bola emasmi, bir oz vaqt o‘tib xonasiga kirsam,

yasagan bayrog‘i yerda o‘yinchoqlari orasida yotibdi. Bolamni chaqirib tanbeh berdim.

— Yerda yotgan nima, bolam?

— Qog‘oz-ku, oyijon, — dedi ko‘zlari mo‘ltirab.

Men unga bayrog‘imiz davlat ramzimiz, g‘ururimiz-faxrimiz, uni yerga tashlash nonni uvol qilish kabi yomon ish ekanini tushuntirdim. So‘ngra birgalashib bayroqchamizni xonasining baland joyiga ilib qo‘ydik.

Oylar o‘tdi. Bahor kunlarining birida bog‘chadan qaytarkanmiz, ortimda o‘ynab kelayotgan bolam “Oyijon, qarang, yomon bolalar bayrog‘imizni yerga tashlabdi”, deb qoldi. Qarasam, bolamning qo‘lida bayrog‘imiz rangidagi bir bo‘lak tasma turar, o‘g‘lim esa uning changlarini mehr bilan puflab qoqardi.

Shunda angladimki, biz Vatan, ona yurtga muhabbat, milliy g‘urur kabi muqaddas tushunchalarni farzandlarimizning toza ruhiga, beg‘ubor tasavvuriga ilk bolalik davrlaridanoq singdirmog‘imiz lozim. Zero, bog‘cha, maktablarda berilayotgan ilm va tarbiya bir tomonu oilada dasturxon atrofida momolarimiz-bobolarimiz, ota-onalardan eshitadigan saboqlari, nasihatlari bir tomon bo‘lib, go‘dak qalblarga manguga muhrlanadi.

* * *

Yurtimizga Latviyadan xizmat safari bilan kelgan hamkasblarimizga hamroh bo‘lib Toshkent viloyatining keng paxtazorlaridan o‘tib borarkanmiz, mehmonlarimizdan biri — Kaspars dalani ko‘rsatib, “Bu paxta emasmi?” deb so‘radi. Uning so‘zlarini tasdiqladik. U esa “Men paxtani faqat televizorda ko‘rganman”, dedi hayrat bilan paxtazorga boqib. Mehmonlarimizga rostakam paxtani ko‘rsatish uchun haydovchimizga yo‘l chetida to‘xtashini so‘radik. Yo‘l-yo‘lakay hamkasblarimizdan biri paxta haqida bilganlarini, yoshligidan paxta tergani, bu yerlar fermerlarga tegishliligini tushuntira ketdi.

Latish do‘stlarimiz paxtazorga o‘zgacha hayajon bilan kirib borarkan, chanoqlarda qiyg‘os ochilgan paxtalarni avaylab ushlab ko‘rdi, har tarafdan suratga ola boshladi.

Men paxtaning nima ekanini his etish uchun uni qo‘lda uzib olib ko‘rish kerakligini aytdim. Ular esa bir menga, bir paxtaga qarab, “Bu mumkinmi?” deya so‘radi. “Nega mumkin emas?” dedim anglamay. Kaspars “Axir bu birovning plantatsiyasi, mulki bo‘lsa, uni so‘ramasdan olsa bo‘ladimi?” dedi. Men qo‘limdagi uzib olganim lo‘ppi paxta chanoqlarini uzatdim-da, “Faqat mehmonlar uchun mumkin, axir biz mehmondo‘st xalqmiz, chinakam paxta nimaligini bilmay ketmaysiz-ku!” deya kulib vaziyatdan chiqqan bo‘ldim. Ammo ichimda bir narsa uzildi.

Ha, mehmonlar bilan o‘tgan shu uch kun ichida ularda ko‘p narsani, jumladan, millatiga, milliy tiliga juda baland ehtirom va o‘ta halollikni ko‘rdim, o‘rgandim. Angladimki, aslida, “insof”, “halollik”, “birovning haqi”, “vijdon” kabi tushunchalar insonning millati, dini bilan bog‘liq emas. U qalbda bo‘ladi. Uni oiladagi tarbiya, mamlakatdagi qonunlar va qadriyatlar hamisha mustahkamlab turadi.

* * *

Til — taqdir, degani. U millat taqdiri, uning o‘tmishi va yorqin kelajagi. Buning uchun esa milliy til hayotda keng ko‘lamda amal qilmog‘i lozim. Chunki davlat tilining amaldagi mustaqilligi, mustahkamligi, mavqei millat qadri va qadriyatlari bardavomligi, sobitligini ta’minlovchi kuchdir.

Huquqshunos olim To‘ra Xo‘janiyozovning “Davlat tili — millat taqdiri” kitobida bunday deyiladi: “Biz Markaziy Amerikadagi yerli aholi — hindularning, dunyoga o‘z madaniyati bilan tanilgan asteklar, mayyalar, irokezlar, seneka, rama, borigon kabi elatlarning deyarli yo‘qolib ketgani, Shimoliy Sibir va Uzoq Sharqdagi korel, pomor, fin, ajar, nanay, yoqut, gundus, evenk, eskimos, chukcha, kunis, xanti, mansi, buryat kabi yana o‘nlab millat va elatlarning milliy tillari va shu tillar tugatilishi oqibatida batamom yo‘qolib borayotgan madaniyati va milliy qadriyatlarini

misol keltirishimiz mumkin. Bunday mayda millat, elat va qabilalarning yo‘qolishi uchun qayerdadir qanchalab o‘q, porox sarflangan bo‘lsa, boshqa bir tuzumda oddiy “til siyosati” yuritilishigina xizmat qildi”.

“Millat o‘lmaydi, agar u o‘zini o‘zi o‘limga mahkum etmasa” (Emirson). Ha, milliy tilga e’tiborsizlik, hurmatsizlik, uning qadrsizlanishi esa ayni millatning inqirozga hukm etilishidir.

Shunday ekan, davlat tili masalasi hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, tilimizning mavqeini qonunan himoya qilish, maqomini mustahkamlash adolatli va o‘z o‘rnida zaruriy davr talabidir. Milliy til faqat munosabatlar vositasi emas, balki milliy madaniyatimiz kaliti, qadriyatlar uzviyligi uchun tub mustahkam ildiz sanaladi.

Bugungi globallashuv deb atalayotgan shiddatkor bir davrda tilimiz sofligini saqlash, unga e’tiborni kuchaytirish, so‘zlashuvda turli xorijiy iboralarni o‘rinli-o‘rinsiz ishlatavermaslik tilimiz kelajagiga qo‘shadigan eng katta hissamizdir.

Ma’naviyat ko‘zgusi bo‘lgan ona tiliga munosabat shaxsning ma’naviyatga munosabatini ham belgilaydi. Kamol topayotgan yosh avlodga ona tiliga e’tibor va ehtirom, unga davlat tili sifatida qarashning mas’uliyati kabi tuyg‘ularni singdirish va mustahkamlab borish dolzarb masaladir. Bu xususda ko‘p va xo‘b gapirilgan bo‘lishiga qaramay, muammo hamon dolzarbligicha qolmoqda.

O‘z tilimizga e’tiborsiz bo‘lishga sizu bizning, shu millat vakiliman degan har bir inson borki, haqqimiz yo‘q.

* * *

O‘tgan yili xizmat safari bilan Belarusda bo‘ldik. Bir hafta davomida hamkorlarimiz bilan muzokaralarni bitirgach, yurtga shoshdik.

Uyga qaytishimiz oldidan Minsk shahridagi katta gipermarketga kirdik, u boshida tursang, bu boshi ko‘rinmaydi. Sovg‘a-salom uchun ul-bul xarid etarkanmiz, mahsulotlarning xilma-xilligidan boshim aylanib, mezbon hamrohimizdan so‘radim: “Mana bularning qaysi birini olganim ma’qul, toza, sifatlirog‘i qaysi?”. Mezbon bir oz ajablanib, meni tushunmaganday, savolimga savol bilan javob qaytardi: “Tozasi qanaqa bo‘ladi?”. “Sen o‘zing bolalaring uchun qaysini ko‘proq xarid qilasan?”. U anglab yetdi, shekilli, jilmayib javob berdi: “Bizda “tozaroq” degani yo‘q. Men o‘zim va bolalarimga xush yoqadiganini xarid qilaman, ammo bu mahsulot sifati bilan bog‘liq emas, uning tarkibi, yog‘lilik darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sifatsiz mahsulot savdo brendining obro‘sini to‘kadi, shuning uchun savdoga kiritilmaydi. Bu mahsulotlarimizning barchasi sifatli, men bunga aminman”.

Yaqinda yo‘limiz tushib savdo majmuasiga kirdik. Aksiga olib, yomg‘ir quyib turibdi. Ro‘zg‘orga zarur mahsulotlarni ham ola ketish maqsadida rastalarni aylana boshladik. Kolbasa va pishloq olish uchun do‘konga kirib, mahsulotlar yorlig‘iga boqib, tanlay boshladik. E’tiborimni tortgani, savdo rastasi yonida sosiska, kolbasa mahsulotlari qoplarga solingan, ba’zilari eshik oldida shundoqqina oyoq ostida, yomg‘ir tagida turardi. Sotuvchidan so‘radim:

— Mahsulotni shunaqa ahvolda saqlaysizlarmi? Bular, aslida, qadoqlangan, sifat talablariga javob beradigan holda saqlanishi kerakmasmi?

— Bu mahsulotlar viloyatlarga jo‘natiladigani, sizga tozasidan, qadoqlanganidan beraman, — dedi sovitkichni ochib.

— Tushunmadim, viloyatdayam buni odamlar yeydi-ku! Yetib borgunicha nima ahvolda bo‘ladi? Oladigan odamlarning sog‘lig‘iga ziyon ekanini bilasiz-ku!

Sotuvchining ensasi qotdi:

— Buyog‘i mening muammom emas...

Vatan oldidagi burch, avvalo, shu — seni voyaga yetkazgan zamin, millat, xalq, yurtdoshlaringga bo‘lgan munosabat, mehru oqibat, o‘z ishingga mas’uliyat va imoning butligidan boshlanadi. Bugun sen ko‘z yumgan kichkinagina illat ertaga katta talafot bo‘lib o‘z boshingga, yaqinlaring zimmasiga yuklanishi tarixda ko‘p bora takrorlangan va takrorlanajak haqiqatdir. Avvalo, o‘zimiz, qolaversa, Alloh oldida yuzimiz yorug‘ligi, qalbimiz pokligi har birimiz uchun buyuk saodatdir.

* * *

Vatan mavzusida ko‘p yozamiz, ammo bu tushuncha, bu mehrni qalbdan, ich-ichingdan his qilish qanchalar ulkan baxt ekanini anglab yetavermaymiz ba’zida. Yaqinda haj ziyoratidan qaytgan bir dugonamizning onasini yo‘qlab bordik. Yetmishga yaqinlashgan onaxonning suhbatini eshitib hayajonlandim. Onaxonimiz haj ziyorati taassurotlarini bunday hikoya qildi:

“Haj amallarini bajarib yurgan kunlarimizning birida ibodatga berilib, o‘z guruhdoshlarim, yaqinlarimdan ajralib qolib ketibman. Bir payt qarasam, notanish joydaman, notanish odamlar. Boshqa mamlakat ziyoratchilari hammasi o‘z bayroqlarini ko‘tarib olgan. U yoq-bu yoqqa alanglayman, qani endi biznikilar, bizning bayrog‘imiz ko‘rina qolsa. O‘sha yerda yurgan nazoratchi yigit yoniga borib, “O‘zbekiston, men o‘zbekistonlikman...”, deya amallab, adashib qolganimni tushuntirdim. U bosh silkidi-da, yoniga bir dastyor yigitni chaqirib, allanimalar dedi. Muslim yigit menga yo‘l boshlab ketdi. Yigitchaning ortidan ketyapman-u, har tomonga alanglayman, ko‘zlarim ko‘k, yashil, oq rangli qadrdon bayroqni izlaydi. Ancha yurdik va nihoyat, bir muyulishdan o‘tib, hilpirab turgan O‘zbekiston bayrog‘iga ko‘zim tushdi. Yuragim bir hapqirdi-bir hapqirdiki, ko‘zlarimdan yosh shashqator bo‘lib oqa boshladi. Men shu yoshga kirib, bunchalar sog‘inchni, bunchalar hayajonni his etmagandim. Shu onda yurtim bayrog‘ini olib, ko‘zlarimga to‘tiyo qilib surgim, bolamni erkalaganday bag‘rimga bosib, quchib o‘pgim keldi. Guruhdoshlarim ham mendan xavotir olib turgan ekan, ko‘rinishim bilan men tomon ildamlashdi. Ko‘zlarimdagi yoshni ko‘rib, xavotir aralash shoshib so‘roqqa tutishdi. Bir oz o‘zimga kelgach, aytdim: “Qarang, bizning bayrog‘imiz hamma yurtlarnikidan chiroyli-ya!..”.

Keyin onaxon bir xo‘rsinib, qo‘shib qo‘ydi:

“Men-ku, muqaddas joyda bir on yurtdoshlarimni yo‘qotib qo‘yib, Vatan qadrini his etdim, firog‘iga chidolmadim. Vatandan olisda yillab yurganlar bu ayriliqqa qanday chidarkan-a?”.

Onaxonning hikoyalarini eshitib, o‘tirganlar ancha payt sukutda qoldik...

* * *

Bir rassomdan baxtning suratini chizib berishini so‘rashganida, u o‘ylanib o‘tirmay, kaftdagi bir siqim tuproq rasmini chizgan ekan. Ha, baxtimiz, orzu-maqsadlarimiz ro‘yobi, shodligimiz ta’mi mana shu tuproqdagina totli, huzurbaxsh. Biz mana shu tuproq — ona Vatan bag‘ridagina chinakam baxtni his eta olamiz, usiz esa har qanday boyligu shodligimiz, yuksalishlarimiz qiymati nolga tenglashadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 509.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimamatova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 22:15 Topshirildi — 22:55